



## IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLAR JADAL RIVOJLANAYOTGANI QAYD ETILDI

28-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovning telefon orqali muloqoti bo‘lib o‘tdi.

Suhbat avvalida O‘zbekiston Prezidenti va Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi bir-birini yaqinlashib kelayotgan Yangi yil bayrami bilan dildan qutlab, qardosh xalqlarimizga tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tilaklarini bildirdilar.

Davlatimiz rahbari Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovga o‘zining samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yo‘ladi.

O‘zbekiston bilan Turkmaniston o‘rtasidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va chuqurlashgan strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi. Ilgari erishilgan, shu jumladan, parlamentlararo muloqot doirasidagi kelishuvlar ijrosining borishi muhokama qilindi.

Tomonlar barcha ustuvor yo‘nalishlarda o‘zaro manfaatli hamkorlik sezilarli faollashganini katta mamnuniyat bilan qayd etdilar.

O‘zaro savdo hajmi oshmoqda — 2023-yil

yakuni bilan tovar ayirboshlash 1 milliard dollardan ortadi. Poytaxt Toshkent va Ashxobod shaharlarida savdo uylari ochildi, birgalikda “Shovot — Toshovuz” chegaraoldi savdo zonasini barpo etish bo‘yicha ishlar davom etmoqda.

Sanoat, energetika, qishloq xo‘jaligi, transport sohasida ikki mamlakat yetakchi korxonalarining kooperatsiyasi kuchaymoqda, hududlararo aloqalar kengaymoqda. Joriy yilda Hukumatlararo komissiya va Ishbilarmonlar kengashining navbatdagi yig‘ilishlari muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

Qo‘shma madaniy-gumanitar tadbirlar, shu jumladan, Madaniyat kunlari va ijodiy jamoalarning safarlari o‘tkazilmoqda.

Markaziy Osiyodagi mintaqaviy hamkorlikning amaliy jihatlarini yuzasidan ham fikr almashildi. 2024-yilga mo‘ljallangan uchrashuvlar rejasini ko‘rib chiqildi.

O‘ZA



## BUYUK O‘ZBEK YO‘LI

# KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR

MAMLAKATIMIZNING BARQAROR TARAQQIYOTI,  
INSON MANFAATLARINING SAMARALI  
HIMOYASIGA XIZMAT QILADI

Yakunlanayotgan 2023-yil mamlakatimiz tarixida konstitutsiyaviy islohotlar yili sifatida mustahkam muhurlanib qoladi. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek: “Hech shubhasiz, tom ma’nodan xalqchil qomus bo‘lgan Asosiy qonunimiz yangi O‘zbekistonda barpo etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarimiz ortga qaytmaligining mustahkam huquqiy kafolati bo‘lib xizmat qiladi”.

Shu yil 30-aprel kuni milliy tariximizda birinchi marta umumxalq referendumida konstitutsiyamiz yangi tahrirda qabul qilinishi ulkan tarixiy voqea bo‘ldi. Zero, yangilangan

Konstitutsiyamizning ijodkori va muallifi ham, uni qabul qilgan ham xalqimiz. Sobitqadamlik bilan amalga oshirilgan islohotlar samarasida “inson — jamiyat — davlat” konstitutsiyaviy modeli asosida

insonparvar demokratik davlat, ochiq va adolati jamiyat barpo etishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari yanada mustahkamlandi.

Davomi 3-betda



## OBOD MANZILLAR

### SHAHARDAN QOLISHMAYOTGAN CHEKKA OVULLAR

Qoraqalpog‘istonning Taxtakopir tumanidagi Qorateren ko‘li bo‘yida etnoturistik obyekt qurilishi boshlandi. Ayni paytda tuman markazidan 40 kilometr uzoqda joylashgan ko‘l bo‘yida o‘tovlar tiklanmoqda. Bu yerda sayyohlar uchun zarur barcha sharoit yaratilyapti. Yo‘llar asfaltlandi, hudud to‘liq elektrlashtirildi. Quruvchilarning aytishicha, ko‘l bo‘yi ajoyib sayyohlik manziliga aylandi. Ko‘plab mahalliy aholi ishli bo‘ladi. Quruvchilar ishni kelasi yil bahorda yakuniga yetkazishni rejalashtirgan.

Davomi 2-betda



## E‘TIROF

Prezidentimiz 2020-yil 31-yanvar kuni Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasiga tashrif buyurib, olimlar, yosh tadqiqotchilar, ishlab chiqarish vakillari, ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari bilan uchrashuv o‘tkazgan edi.

### ORZULAR RO‘YOBI — ILMGA VA UNI O‘RGANISHGA QARATILAYOTGAN E‘TIBOR NATIJASI

Bugun ham yaxshi eslayman, o‘shanda O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi, uni hayotga tatbiq etishning amaliy platformasini yaratish maqsadida Fan va texnologiyalar bo‘yicha respublika kengashi tashkil etilgani ta’kidlandi. “Endi olimlarimiz ham mas’uliyatni chuqur his qilgan holda, tadqiqotlarning amaliy

natijalari bilan tegishli sohalar rivojiga munosib hissa qo‘shishlari lozim. Nufuzli akademiklardan ham, ilm-fan sohasiga ilk qadam qo‘yayotgan yosh olimlardan ham katta shijoat va amaliy natijadorlik qilish talab etiladi”, dedi davlatimiz rahbari.

Davomi 5-betda

## Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

### SHAXSIY MAS‘ULIYAT VA MUSTAHKAM IJRO INTIZOMI — FAOLIYATIMIZ SAMARADORLIGINING MUHIM OMILI

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, har qanday mamlakat tashabbuskor, intizomli, shijoatli va islohotlarga daxldorlik tuyg‘usi bilan mehnat qiladigan, mas’uliyatni teran his qila oladigan kadrlar bilan taraqqiyotga erishadi.



Samarali boshqaruv tizimini yaratish jarayonida har bir xodim o‘z zimmasidagi vazifalarni vijdonan va mas’uliyat bilan bajarishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma’noda, mahalliy davlat boshqaruvi organlari faoliyatida ham ijro intizomi masalasiga natijadorlikka erishishning muhim omili sifatida qaraladi.

Ta’kidlash joizki, “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimining joriy etilishi qonunchilik hujjatlari

Davomi 2-betda



## TAHLIL VA TAQQOS

# XIZMAT KO‘RSATISHNING IQTISODIYOTDAGI O‘RNI sohada o‘sh bor, ammo yetarli emas



Zamonaviy dunyoda xizmat ko‘rsatish sohasi yildan-yilga yanada barqaror ahamiyat kasb etib bormoqda. Negaki, iqtisodiyotni xizmat ko‘rsatish sohasiga asoslangan mamlakatlar sanoat yoki qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti ustiga qurilgan davlatlarga qaraganda tezroq rivojlanayapti. Dunyoning ilg‘or mamlakatlarida xizmatlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 75 foizdan yuqoriligi ham bejiz emas. Aqliy mehnat xodimlarining 80 foizdan ortig‘i va oliy ma’lumotli kadrlarning 87 foizi ayni shu sohada jamlangan. Xizmatlar iqtisodiyotni ijtimoiy yo‘naltirishga va aholi turmush sifatini yaxshilashga ko‘maklashadi.

O‘zbekistonda keng ko‘lamli islohotlar boshlanganidan buyon xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiy rivojlanishning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Prezidentimiz raisligida joriy yil 18-dekabrda hududlarda ishlab chiqarishni yanada kengaytirish va xizmatlarni rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ayni yo‘nalishdagi ishlar tahlil qilindi, galdagi ustuvor vazifalar belgilandi. Ushbu maqolada mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish sohasi qanday rivojlanayotgani va bu borada 2024-yilga qanday vazifalar qo‘yilgani haqida so‘z boradi.

2022-yilda iqtisodiyotda jami xizmatlar hajmi 357 trilion so‘mga yetib, 2017-yilga nisbatan 2 barobar oshdi. So‘nggi 6-yilda xizmat ko‘rsatish sohasiga jalb qilingan investitsiyalar hajmi esa 4,2 baro-

bar ko‘payib, 2022-yilda 114,5 trilion so‘mni tashkil etdi.

Sohani rivojlantirishda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha bozor xizmatlarining asosiy qismi savdo, transport xizmatlari va moliyaviy xizmatlarga to‘g‘ri keladi. Xususan, 2022-yilda savdo xizmatlari ulushi 24,8 foiz, transport xizmatlarining hissasi 22,7 foiz, moliyaviy xizmatlar ulushi 22,5 foizni tashkil etdi. Shuningdek, xizmatlarning salmoqli qismi axborot va kommunikatsiyalar (6,4 foiz), ta’lim (4,3 foiz), turar joy va umumiy ovqatlanish sohaslarida (3,2 foiz) bajarildi. 2023-yilning 11 oyi davomida 421 trilion so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi. Bugungi kunda moliya, transport, savdo, turizm, ta’lim, tibbiyot va aloqa-axborot tarmoqlari jami xizmatlar hajmining 85 foizini ta’minlaymoqda.

Davomi 4-betda

MA’NAVIYAT CHIROG‘I  
hech qachon  
o‘chmasin!

5

PREZIDENT QARORLARI — HAYOTDA VA NAZORATDA

# SHAXSIY MAS'ULIYAT VA MUSTAHKAM IJRO INTIZOMI — FAOLIYATIMIZ SAMARADORLIGINING MUHIM OMILI

**Jo'rabek RAHIMOV,**  
Xorazm viloyati hokimi

Bo'shlanishi 1-beta

Prezidentimizning 2021-yil 10-fevraldagi "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori talablari asosida "Ijro.gov.uz" tizimidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga yuklatilgan topshiriqlarning ijro etilishi holati tahlil qilinib, har hafta Vazirlar Mahkamasi yig'ilishlarida tanqidiy muhokama etib borilmoqda.

Qayd etish lozimki, davlatimiz rahbari raisligida joriy yil 21-noyabr kuni yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer hisobini yuritish hamda kadastr xizmatlarining sifatini yaxshilash masalalari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida vazirlik, hokimlik va idoralardagi ijro intizomi holatiga ham to'xtalib o'tildi. Bu borada birinchidan — joriy qilingan tizimga, ikkinchidan — belgilangan tartibga, uchinchidan — temir intizomga jiddiy rioya qilinishi lozimligi qat'iy belgilab berildi hamda topshiriqlar ijrosini tashkil etishda ishni oldindan to'g'ri rejalashtirish va mavjud muammolarni barvaqt hal etish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Bugungi kunda Xorazm viloyati hokimligida ijro intizomi bo'yicha alohida tarkibiy bo'linma faoliyat olib bormoqda. Kelib tushayotgan barcha topshiriq va murojaatlar, ularning ijrochilarga yetkazilishidan tortib, ijro etilishiga qadar bo'lgan jarayon elektron tizim orqali doimiy nazoratga olingan. Topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida ta'minlash uchun nazorat rejalarini ishlab chiqish, ijro jarayonining kunlik monitoringini amalga oshirish, boshqa davlat organlari bilan tezkor ma'lumot va axborot almashinuvi yo'lga qo'yilgan.

Shu bilan bir qatorda, mas'ul xodimlarning bilim va malakasini oshirish maqsadida viloyat adliya boshqarmasi bilan hamkorlikda maxsus seminar-treninglar o'tkazib borilmoqda.

Qonunlar, Prezident farmon va qarorlari, hukumat qarorlarining ijro holatini muntazam ravishda muhokama qilib borish amaliyoti ham yo'lga qo'yilgan. Viloyat hokimligi apparatining haftalik, oylik va choraklik yig'ilishlari, xalq deputatlari viloyat Kengashining sessiyalarida ijro intizomini mustahkamlash borasida hokim o'rinbosarlari, tashkilotlar rahbarlarining hisoboti muntazam eshitilmoqda. Bu jarayonda deputatlar faolligi, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat vakillarining hisobotlarini nomiga eshitish emas, balki har bir band bo'yicha jiddiy muhokamalar bo'layotganini alohida ta'kidlash joiz.

Bugungi kunga qadar viloyat hokimligi-

ga 12 ming 782 hujjat, jumladan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatdan 322 ta, Prezident Administrasiyasidan 586 ta, Vazirlar Mahkamasidan

1398 ta, boshqa vazirlik va idoralardan 10 ming 476 ta xat va hujjat kelib tushgan. Shundan 12 ming 718 tasi (99,5 foiz) o'z muddatida nazoratdan olingan.

2023-yil davomida "Ijro.gov.uz" tizimiga kiritilgan 1034 hujjat nazoratga olinib, shundan 939 ta topshiriq o'z muddatida nazoratdan chiqarilgan hamda 1 ta topshiriq ijrosini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar belgilangan. Shu bilan birga, nazoratdan olingan 94 ta topshiriq muddatidan kech bajarilgan.

Ijro intizomiga mas'uliyatsizlik bilan yondashgan, topshiriqlarni o'z muddatida bajarmagani uchun viloyat hokimining 2 nafar o'rinbosari va 2 nafar kotibiyat mudiriga hayfsan intizomiy jazo chorasi qo'llanildi.

Shuningdek, "Ijro.gov.uz" tizimida shahar va tuman hokimliklariga yuklatilgan topshiriqlarning ijro etilishi holati tahlil

4 ta, Xiva shahrida 3 ta, Hazorasp tumanida 1 ta shunday holatga yo'l qo'yilgan. Mazkur holatlar mas'ul rahbarlar ishtirokida keng muhokama qilinib, aybdor



Viloyatda 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi, davlat investitsiya dasturi, "Obod xonadon", "Obod ko'cha", "Obod mahalla" mezonlari asosida keng ko'lamda amaliy ishlar olib borildi. Natijada viloyatda yalpi hududiy mahsulot, eksport hajmini oshirish va yangi ish o'rinlari yaratishga xizmat qiladigan qator loyihalar ishga tushirildi.

ishlari amalga oshirilishi natijasida viloyat aholisining markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlanish darajasi 90 foizga yetdi.

Keyingi yillarda ichki yo'llarni ta'mirlashga alohida e'tibor qaratildi. Viloyat bo'yicha joriy yilda 620 kilometr tuproq yo'llariga qum-shag'al qoplamasi yotqizildi. Vazirlar Mahkamasining tegishli qaroriga asosan shahar va tumanlarda 6792 xonadon ta'mirlandi. Natijada 371 ming fuqaroning yashash sharoiti yaxshilandi.

Sanoat sohasida 4177 korxonada faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa, shundan 1064 tasi bu yil yangidan tashkil qilindi. Joriy yil yakuni bilan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 21,3 trilyon so'mga, shundan hududiy sanoat mahsulotlari 8,9 trilyon so'mga yetkazildi. 2023-yilda hududiy dasturlar doirasida qiymati 5,9 trilyon so'mlik 1097 loyiha amalga oshirilib, 18 ming 500 ta yangi ish o'ri yaratildi.

Vohada qishloq xo'jaligi tarmoqlari yil sayin rivojlanib bormoqda. Mirshkor dehqon va fermerlarimiz bu yilgi murakkab sharoitda ham fidokorona mehnat qilib, g'alla, paxta va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlaridan mo'l hosil yetishtirdi. Bu yil viloyatimiz bo'yicha 326 ming tonna paxta, 388 ming tonna don, 2157 tonna pilla, 954 ming tonnadan ortiq meva-sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtirilgan dehqonlarimizning yil bo'yi qilgan mashaqqatli mehnatlar samarasidir.

Keyingi yillarda viloyatimizda 418 gektar maydonda zamonaviy tipdagi issiqxonalar tashkil etilib, qishloq aholisi uchun qo'shimcha ish o'rinlari yaratildi. Joriy yilda esa 500 gektar maydonda yangi bog'lar tashkil qilindi, 12 ming gektar qishloq xo'jaligi yerlari "E-avksion" tizimi orqali dehqonchilik qilish uchun aholiga uzoq muddatga ijaraga berildi.

Natijada meva-sabzavot va poliz mahsulotlari yalpi hosili sezilarli darajada oshdi, ichki bozor ehtiyojini qondirish bilan birga, eksport imkoniyatlari kengaydi. Joriy yil barcha dasturlar doirasida 1810 kilometr uzunlikda irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlari rekonstruksiya qilindi va tizimli ta'mirlash-tiklash ishlari bajarildi, 167 ta suv inshooti yangidan qurildi va ta'mirlandi. Natijada viloyatdagi jami 17 ming gektar sug'oriladigan yerning suv ta'minoti hamda 35 ming gektar yerning meliorativ holati yaxshilandi. Rekonstruksiya qilingan kanalning foydali ish koeffitsiyenti 95 foizgacha oshdi, yiliga 300 million metr kub suv resurslari iqtisod qilinishiga erishildi. Shuningdek, qariyb 42 ming gektar maydonda suv tejovchi texnologiyalar, jumladan, tomchilatib va yomg'irli sug'orish tizimlari joriy qilindi, 36 ming gektar maydon lazerli tekislandi.



xodimlarga nisbatan tegishli intizomiy jazo chorasi qo'llanilgan.

Ijro intizomining muhim yo'nalishi jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashdir. Xalq qabulxonasi bilan birgalikda joylarda o'tkazilgan sayyor qabullarda 3811 fuqaroning murojaati tinglanib, amaliy

yordam ko'rsatildi. 2023-yil davomida 3454 ta ariza va shikoyat o'rganilib, natijasi murojaat mualliflariga ma'lum qilingan, 191 ta murojaat ijrosi ma'lum muddat talab etgani bo'is, ularni hal etish choralarini ishlab chiqildi.

Murojaatlar, asosan, imtiyozli bank kreditlari olish, yer munosabatlari, bandlik va moddiy yordam masalalari bilan bog'liq bo'lib, ularning asosiy qismi ijobiy hal etil-

qilinganda, ayrim kamchiliklar aniqlandi. Jumladan, Xiva tumanida 46 ta, Xiva shahrida 32 ta, Hazorasp tumanida 18 ta, Qo'shko'pir tumanida 15 ta, Bog'ot tumanida

9 ta topshiriqli hujjat ijrosi muddatidan kechiktirib amalga oshirilgan.

Masalan, shahar va tuman hokimlarining qarorlari muddatidan kechikib chiqarilgan, jumladan, Xiva tumanida



## OBOD MANZILLAR

# SHAHARDAN QOLISHMAYOTGAN CHEKKA OVULLAR

Mahallalarda tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, yangi ish joylari yaratish va aholi daromadlarini oshirish maqsadida tumanning "Nurli bo'ston" mahalla fuqarolar yig'ini hududida bo'sh turgan imoratda mikromarkaz tashkil etildi. Unda ishlab chiqarish va hunarmandlik qilish uchun sharoit yaratildi.

Bo'shlanishi 1-beta

Qorao'zak tumani "Qorao'zak" ovul fuqarolar yig'inida ham obodonlashtirish ishlari avjida. Markaziy ko'chalarda ta'mirlab bo'lindi. Yordamga muhtoj aholi uylarining tomi shiferlab berildi. Ko'chalarga asfalt yotqizildi, ijtimoiy obyektlar qad ko'tardi. Bolalar uchun sport maydonchalari qurib bitkazildi.

Hududning diqqatga sazovor joylaridan biri madaniyat uyi hisoblanadi. Bu bino yaqinda to'liq ta'mirdan chiqarildi. Endilikda barcha madaniy tadbirlar saroyida tashkil etilyapti. Ovul bolalari madaniyat markazidagi har xil to'garaklarga qatnamoqda.

— Madaniyat uyimiz ko'p yillardan buyon qarovsiz bo'lib, juda achinarli holga kelib qolgan. Ta'mirdan so'ng yangi binoga aylandi. Bundan, ayniqsa, bolalarlarning quvonchi cheksiz. Chunki ular turli to'garaklarga qatnab, hunar o'rganyapti, — deydi Xo'jambergan O'rimbetov.



Kegeyli tumani "Abat" ovul fuqarolar yig'inidagi Shuyt ovulida yashovchi 80 oila 2008-yildan buyon Shuyt suvni chuklantiruvchi stansiyasidan ichimlik suv olib kelayotgan edi. Ovul ahli og'irini

yengil qilish va har bir xonadonni suv bilan ta'minlash maqsadida joriy yilda BMT Taraqqiyot loyihasi mablag'i asosida bu stansiyada 130 ming dollarlik qurilish ishlari bajarildi. Natijada sotilma 10 kub metr suvni tozalash va 9 kilometr masofadagi xonadonlarni toza ichimlik suv bilan ta'minlash imkoniyati yaratildi.

Mahallalarda tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, yangi ish joylari yaratish va aholi daromadlarini oshirish maqsadida tumanning "Nurli bo'ston" mahalla fuqarolar yig'ini hududida bo'sh turgan imoratda mikromarkaz tashkil etildi. Unda ishlab chiqarish va hunarmandlik qilish uchun sharoit yaratildi.

Qo'ng'iro't tumani ahli zamon bilan hamnafas qadam tashlamoqda.

— Ko'chamizning ahvoli juda abgor edi, — deydi tumanning "Qiyot" ovul fuqarolar yig'inidagi Qiyot gulari ko'chasida yashovchi Zulfiya Qutlimuratova. — Joriy yilda 1,5 kilometr piyodalar yo'lakchasi qurildi. Ko'chani yoritish uchun 30 ta quvosh paneli va 5 ta videokamera o'rnatildi. Bu ishlarga hududimizdagi tadbirkorlar ham hissa qo'shdi.

Prezidentimizning 2021-yil 9-avgustdagi "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosiga ham e'tibor bilan yondashilyapti.



Qo'ng'iro'tlik O'ng'arbo'y Mandiboyev yosh bo'lishiga qaramay, turmushning ko'p qiyinchiliklarini boshidan kechirdi. U doimo o'z uyi bo'lishini orzu qilardi.

— Hayotimdagi eng baxtli va quvonchli kunlarga yetib keldim. Menga davlatimiz tomonidan uy berildi, — deydi u. — Kelajakda yurtimizning rivojlanishi yo'lida bor kuch-qayratimni ayamayman.

Insonga e'tibor ortgan joriy yilda qo'ng'iro'tlik yana 2 yosh uyi-joyli bo'ldi.

Joriy yilda Ellikqal'a tumanida ham 35,2 kilometr ichki yo'llarga asfalt va qumshag'al yotqizish rejalashtirilgan, buning uchun 6 milliard 728 million so'm ajratilgan edi. "Doshqal'a" ovul fuqarolar yig'ini tuman markazidan ancha uzoqda joylash-

gan. Ichki yo'llarda qish oylarida yurishning imkoniyati bo'lmagan bo'is, aholi bir necha marotaba tegishli tashkilotlarga murojaat qilgan. Nihoyat, aholi murojaatlari ijobiy hal etilib, 8 kilometr yo'lga qumshag'al yotqizildi.

— Ovul fuqarolar yig'inimiz 1974-yili tashkil topgan. Ilgari 3-4 oila yashagan ovulimizda bugun 350 dan ziyod aholi yashayapti, — deydi Egamberdi Romanov. — Shu paytgacha yo'llar, elektr energiyasi bo'yicha juda ko'p muammolar bo'lgan. Endi esa chiroq o'chmayapti, yo'llarimiz sozlanaypti.

Prezidentimizning 2022-yil 25-oktabrdagi "2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha

Viloyatda hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim o'rin tutuvchi bir qator yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. O'tgan yili mustaqillik bayrami arafasida Prezidentimiz ishtirokida Urganch shahridagi al-Xorazmiy shaharchasi qurilishiga tamal toshi qo'yilgan edi. Ayni kunda ushbu shaharchada qurilish, bunyodkorlik ishlari jadal sur'atda davom etmoqda. Hududi 130 gektar maydonni egallagan shaharchada buyuk alloma bobomizning haykali o'rnatiladi. Shuningdek, al-Xorazmiy nomi-dagi yangi universitet, axborot texnologiyalari markazi, maktab va bog'chalar, tibbiyot muassasalari, innovatsiya va madaniyat markazlari, ko'p qavatli turar joylar barpo etiladi.

Viloyat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan "Buxoro — Miskin — Urganch — Xiva" temir yo'lini elektrlashtirish, "Shovot — Gurlan — Mang'it" temir yo'li qurilishi kabi yirik loyihalar jadal davom ettirilyapti. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, 2025-yilda Toshkent — Xiva yo'nalishida "Jaloliddin Manguberdi" tezyurur poyezdi qatnovini yo'lga qo'yilishi xalqimiz uchun katta qulaylik yaratish bilan birga, sayyohlik, turizm sohasini yanada rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Islom hamkorlik tashkiloti tomonidan Xiva shahri-ning 2024-yilda "Islom dunyosining turizm poytaxti", deb e'lon qilinishi viloyatimizda sayyohlik sohasini yangi bosqichga ko'tarish, bu yo'nalishda keng qamrovli ishlarni ro'yog'ga chiqarishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Yurtimizda kechayotgan izchil islohotlarning barchasi inson qadriini ulug'lash, xalqimizning ertangi kuni, farovon turmushini ta'minlashga qaratilgan. Shu ma'noda, davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilinayotgan har bir hujjat zamirida yurtimiz kelajagi, xalqimiz manfaatlarini turibdi. Undagi topshiriqlar ijrosini o'z muddatida va so'zsiz bajarish xalqimizni rozi qilish, fuqarolarning islohotlarga ishonchini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz 2023-yil 14-iyul kuni lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqida ijro intizomini mustahkamlashga jiddiy e'tibor qaratib, quyidagi muhim fikrlarni bildirdi:

"Kimki "Saylov o'tdi — safarbarlik tuga-di", deb o'yilasa, xato qiladi. Haqiqiy safarbarlik endi boshlanadi. Chunki xalqimiz bizga ishonib topshirgan katta-katta reja va dasturlarni o'zimiz bajarmasak, aytib, chetdan kim kelib bajarib beradi? Kelgusi yetti yilga mo'ljallab ishlab chiqilgan strategik maqsadlarga erishish uchun bizda barcha kuch va imkoniyatlar bor. "Har bir kun — bu imkoniyat, har bir kun — bu kelajak poydevori" degan shior bugundan boshlab hayotimiz qoidasiga, har qaysi rahbarning, barcha xalq noiblari, vazir va hokimlarning kundalik faoliyat dasturiga aylanishi shart".

Ana shu fikrlardan kelib chiqib, ijro intizomini yanada mustahkamlash hamda maqsadli ko'rsatkichlarga erishish bo'yicha qo'shimcha vazifa va rejalarini belgilab oldik. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik bundan buyon ham har birimizning kundalik faoliyatimizda asosiy qoida bo'lib qoladi.

qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan, Amudaryo tumani hududidagi mavjud muammolarni bartaraf etish va infratuzilmasini rivojlantirishga 25 milliard 595 million so'm ajratilishi belgilangan.

Ushbu mablag' hisobidan tumandagi Do'stlik mahallasi hududida qiymati 334,3 million so'mlik bolalar sport maydonchasi qurilib, foydalanishga topshirildi. "Xizir eli" mahalla fuqarolar yig'ini binosini qurishga 820,9 million so'm hamda "Yuqori qishloq" mahalla fuqarolar yig'ini binosini qurishga 826 million so'm ajratildi. Ayni paytda bu binolar qurib bitkazilgan.

Bugungi kunda Qilichboy ovuli ko'chalarga tosh-shag'al yotqizish, yangi simyog'och o'rnatish va kabel tortish ishlari davom etmoqda. Qoramon mahallasi ahli murojaatlariga ko'ra, hududga 25 ta beton ustun yetkazib berildi.

Beruniy tumanida esa yangi sport majmuasi qurildi.

— Majmuada ko'plab sport turlari bilan shug'ullanish uchun barcha sharoitlar bor. Zamonaviy sport zallariga talab ortishi hamda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish maqsadida ushbu loyihaga qo'l urdik, — deydi "Bonu Mustafa" korxonasi rahbari Muxtor Aytboyev.

Qoraqalpog'istondagi eng chekka ovullar ham shahardan qolishmaydigan darajada obodonlashtirilmoqda. Yorum ko'chalari, tekis asfalt yo'llar, chiroyli binolar, xizmat ko'rsatish shoxobchalari, zarur kommunikatsiya tarmoqlari paydo bo'lmoqda. Zero, xalqimiz har bir kunini obod va farovon, gozal turmush sharoitida o'tkazishga haqlidir.

**Minajatin QUTLIMURATOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

## BUYUK O'ZBEK YO'LI

# KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR

## mamlakatimizning barqaror taraqqiyoti, inson manfaatlarining samarali himoyasiga xizmat qiladi

**Mirzo-Ulug'bek ABDUSALOMOV, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist**

Boshlanishi 1-betda

### Xalq irodasining yorqin ifodasi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyati joriy yil har qachongidan samarali bo'ldi. Buni Konstitutsiyaviy sud tomonidan 2022-2023-yillarda 119 qonun va 1384 ta boshqa normativ-huquqiy hujjatning Konstitutsiyaga muvofiqi o'rganib chiqilganida ham ko'rish mumkin.

Konstitutsiyaviy sud qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat hujjatlarining milliy Konstitutsiyaga muvofiqligiga oid ishlarni ko'radi. 2023-yil 13-mart kuni Konstitutsiyaviy sud Oliy Majlis Qonunchilik palatasining "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonuni loyihasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish haqida"gi qarorining Konstitutsiyaga muvofiqini aniqlash to'g'risidagi masalani ochiq sud majlisida ko'rib chiqdi.

Konstitutsiyaviy sud Qonunchilik palatasi tomonidan Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibiga rioya qilinmagan, referendumga qo'yilayotgan konstitutsiyaviy qonun loyihasida referendum predmeti bo'lishi mumkin bo'lmagan masalalar mavjud emasligi hamda Qonunchilik palatasi tomonidan referendum tayinlash tartibiga rioya etilgani kabi masalalarni ko'rib chiqdi.

Sud jarayonida Konstitutsiyaviy sud quyidagi muhim holatga e'tibor qaratdi. Konstitutsiyaga muvofiq, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonun loyihasini referendumga qo'ymasdan qabul qilish vakolatiga ega. Ayni paytda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi konstitutsiyaviy qonun loyihasini qabul qilish bo'yicha referendum o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilgan.

Konstitutsiyaviy sud tomonidan referendum o'tkazish yo'li bilan Konstitutsiya qabul qilish amaliyoti mamlakat tarixida birinchi marta qo'llanilayotgani, referendum xalq irodasining bevosita ifodasi ekani, umumxalq referendumida qabul qilingan qarorlar oliy yuridik kuchga ega bo'lishi, xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir, degan konstitutsiyaviy tamoyillarga asoslanib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan Konstitutsiyani qabul qilish xalqning xohish-irodasiga havola qilinishi xalq hokimiyatchiligi konstitutsiyaviy prinsipini amalga oshirishga xizmat qiladi, deb baholandi.

Muhokama qilingan masala har tomonlama o'rganib chiqilib, konstitutsiyaviy qonun loyihasi bo'yicha referendum o'tkazish haqidagi qaror Konstitutsiyaga muvofiq deb topildi.

Bu, o'z navbatida, 2023-yil 30-aprel kuni referendumda umumxalq ovozi bilan qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya davlat va jamiyat hayotini modernizatsiya qilish va mamlakatda konstitutsiyaviy qonuniylik muhitini yanada kuchaytirish uchun mustahkam huquqiy asos bo'ldi.

### Konstitutsiya va inson qadri

2023-yil 5-dekabr kuni Konstitutsiyaviy sud majlisida Konstitutsiya va "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonunga muvofiq konstitutsiyaviy sudlov ishlarini yuritish amaliyotini umumlashtirish natijalari yuzasidan Oliy Majlis palatalari va mamlakat Prezidentiga har yili taqdim etiladigan yurtimizdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati to'g'risidagi axborot ko'rib chiqildi. Konstitutsiyaviy sud axboroti mamlakatimiz tarixida birinchi marta ochiq majlisda ko'rib chiqilgani, unda ko'tarilgan masalalar konstitutsiyaviy qonuniylik muhitini ta'minlashga xizmat qilishi alohida ta'kidlandi.



ladan, 2023-yil davomida Konstitutsiyaviy sudga kelib tushgan ikki mingdan ortiq murojaat ko'rib chiqildi. Ular Konstitutsiyaviy sud sudyalari, ekspertlari tomonidan har tomonlama o'rganilib, zarur hollarda qo'yilgan masala yuzasidan murojaat mualliflariga huquqiy tushuntirishlar berildi. Murojaatlarda qo'yilgan boshqa masalalar, xususan, umumyurisdiksiya sudlarining qarorlari va tergov, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari, uy-joy, ishga va o'qishga tiklash, pensiya ta'minoti, fuqarolik kabi boshqa murojaatlar ham e'tiborsiz qoldirilgani yo'q.

Shuningdek, Konstitutsiyaviy sudga fuqarolar bilan yaqindan muloqot qilish, murojaatlarini bevosita qabul qilish maqsadida ishga tushirilgan "Fuqarolarning onlayn qabuli" telegram kanali

**Konstitutsiyaviy sud tomonidan referendum o'tkazish yo'li bilan Konstitutsiya qabul qilish amaliyoti mamlakat tarixida birinchi marta qo'llanilayotgani, referendum xalq irodasining bevosita ifodasi ekani, umumxalq referendumida qabul qilingan qarorlar oliy yuridik kuchga ega bo'lishi, xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir, degan konstitutsiyaviy tamoyillarga asoslanib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan Konstitutsiyani qabul qilish xalqning xohish-irodasiga havola qilinishi xalq hokimiyatchiligi konstitutsiyaviy prinsipini amalga oshirishga xizmat qiladi, deb baholandi.**

Konstitutsiyaviy sud Bosh qonunning yuritimiz hududida to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi, ijtimoiy munosabatlarni bevosita tartibiga solishi, davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan tegishli qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishidan yoki mavjudligidan qat'i nazar, qo'llanilishiga e'tibor qaratdi. Xususan, o'tgan qisqa muddat ichida umumiy yurisdiksiya sudlari tomonidan 21 mingdan ziyod jinoyat, ma'muriy, iqtisodiy va fuqaroviy ish bo'yicha Konstitutsiya va uning moddalari to'g'ridan-to'g'ri qo'llanilgani qayd etildi.

Shuningdek, Bosh qonun normalari to'laqonli amalga oshirish bo'yicha davlat organlari oldiga keng ko'lami va mas'uliyatli vazifalar qo'yishi va ayni paytda uni to'g'ridan-to'g'ri qo'llash bilan bog'liq ayrim masalalar ham mavjudligiga e'tibor qaratildi.

Konstitutsiya ustuvorligi, inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta'minlash, o'z navbatida, qonuniylik va huquq ustuvorligiga ta'sir etayotgan omillarni vakolatli davlat organlari tomonidan o'z vaqtida aniqlash va tezkor choralar ko'rishni taqozo etadi.

Fuqarolar va yuridik shaxslarning Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish instituti rivojlantirilgani fuqarolar uchun yanada qulay sharoit yaratib, konstitutsiyaviy odil sudlovga erishishni ta'minlashni yangi bosqichga olib chiqishda huquqiy poydevor vazifasini o'tamoqda.

Konstitutsiyaviy sud axboroti barcha davlat organlarining Bosh qonunni amalga oshirish va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlashda mas'uliyatini to'laqonli his qilish, o'z faoliyatida Konstitutsiyaga kafolatlangan huquq va erkinliklarning cheklanishiga yo'l qo'ymaslik, ularni buzishning har qanday holatlari bo'yicha tezkor va qat'iy choralar ko'rib borish mas'uliyatini kuchaytiradi.

Konstitutsiyaviy sud tomonidan qonunlar, Oliy Majlis palatalari qarorlari, O'zbekiston Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, hukumat va mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining Konstitutsiyaga muvofiqi tizimli ravishda o'rganilib, tahlil qilib borilmoqda. Bu esa Konstitutsiya va qonun ustuvorligini samarali ta'minlashga xizmat qilayotir.

O'zbekiston Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifati ta'lim yili"da amalga oshirishga doir davlat dasturiga muvofiq, Konstitutsiyaviy sud tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari yuzasidan ellikdan ortiq taklif va tavsiya berildi. Bu takliflar mazkur hujjatlarining milliy Konstitutsiyamizga mosligini ta'minlash maqsadini ko'zlaydi.

Fuqarolarning murojaatlariga e'tibor oshganini alohida qayd etish joiz. Jum-

orqali Konstitutsiyaviy sudga murojaatlar ortiqcha ovoragarchiliklarning oldini olish, odamlarning uzoqini yaqin qilishda yaxshi samara bermoqda.

### Huquqiy davlatning muhim belgisi

Konstitutsiyaviy sud vakillarining konstitutsiyaviy islohotlar, yangi qabul qilingan qonun hujjatlari, odil sudlovni



amalga oshirish tartibotining mazmun-mohiyatini xalqimizga yetkazishdagi ishtiroki tobora kengaymoqda. Bunda ommaiy axborot vositalari bilan hamkorlik faol yo'lga qo'yilgan. Jumladan, gazeta va jurnallar, elektron nashrlarda ularning rang-barang maqolalari, tele-radiokanalarda intervyu va suhbatlari muntazam berib borilayotir.

Aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish hamda axborotlarni keng auditoriyaga taqdim etish bo'yicha tushuntirish-targ'ibot ishlari ko'lami ham kengayib bormoqda. Huquqiy targ'ibot tadbirlarida Konstitutsiya loyihasi va yangi tahriri mazmun-mohiyati, "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonun va Konstitutsiyaviy sud faoliyati haqida, 2023-yil bo'lib o'tgan referendumga hamda Prezident sayloviga oid tushuntirish va targ'ibot materiallari bilan fuqarolarni xabardor qilishga, mamlakatimizdagi keng qamrovli islohotlarda sud hokimiyatining o'rni va rolini yoritishga alohida e'tibor qaratildi. Axborot tezkorligi va haqqoniyligini ta'minlash maqsadida Konstitutsiyaviy sud faoliyatiga oid ma'lumotlar va yangiliklar Konstitutsiyaviy sudning www.konstsud.uz rasmiy saytida muntazam ravishda e'lon qilib borilayotir.



Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash hamda "Ma'naviyat va ma'rifat soat"larini tashkilotlar tomonidan bo'yicha izchil ishlar qilindi. Xususan, O'zbekiston Prezidentining 2023-yil 16-yanvardagi "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hamda "Odil sudlov faoliyatini amalga oshirishni samarali tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlarini o'rganish va Konstitutsiyaviy sud xodimlarining ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan vazifalari haqida sudyalari va sud xodimlariga batafsil tushuntirishlar berildi.

### Samarali xalqaro hamkorlik

Konstitutsiyaviy sudning inson huquqlarini himoya qilish va konstitutsiyaviy odil sudlovni takomillashtirish borasida tajriba almashish, O'zbekistondagi keng ko'lami islohotlardan jamoatchilikni xabardor qilish maqsadida xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar vakolatxonalarini, chet mamlakatlardan konstitutsiyaviy odil sudlov organlari bilan yaqin hamkorligi yo'lga qo'yilgan. Konstitutsiyaviy sud vakillari qator xalqaro konferensiyasi va tadbirlarda faol ishtirok etib kelmoqda.

Konstitutsiyaviy sud tomonidan Yevropa kengashining Huquq orqali demokratiya uchun Yevropa komissiyasi (Venetsiya komissiyasi) bilan hamkorlikda 2023-yilning 25-26-may kunlari Samarqand shahrida "Markaziy Osiyo davlatlarida konstitutsiyaviy shikoyat instituti modellari rivojlanish tendensiyalari" mavzusida xalqaro konferensiyasi o'tkazildi. Anjumanda konstitutsiyaviy shikoyat institutining huquqiy asoslari, qo'llanilish amaliyoti va ilg'or tajribalar yuzasidan fikr almashildi. Markaziy Osiyo davlatlari, ayniqsa, yangi O'zbekistonda konstitutsiyaviy shikoyat instituti mutasil rivojlanib borayotgani e'tirof etildi. O'zbekistonda konstitutsiyaviy nazorat

**Konstitutsiyaviy sudning tobora takomil topib borayotgan faoliyati nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan haqli ravishda jahonning eng tinch va osoyishta, dadil rivojlanayotgan mamlakatlaridan biri sifatida e'tirof etilgan yangi O'zbekistonni barpo qilishdek ezgu maqsadga erishish yo'lida Bosh qonunimizga tayangan holda konstitutsiyaviy qonuniylikni yanada mustahkamlash, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini keng va samarali ta'minlashga qaratilgandir.**

Keyingi yillarda mamlakatimiz aholisining huquqiy va siyosiy madaniyati oshib bormoqda. Fuqarolarda yurtimizning yorqin kelajagiga, barqaror taraqqiyotga ishonch hissi yanada mustahkamlanganini nafaqat mahalliy, balki xalqaro ekspertlar ham keng e'tirof etmoqda. Jumladan, Xitoy Ijtimoiy fanlar akademiyasining Rossiya, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo instituti direktori Sun Chjuanjining fikricha, "yangilangan Konstitutsiyani ishlab chiqishda O'zbekiston fuqarolarining misli ko'rilmagani faolligi, bir tomondan, davlat rahbari olib borayotgan demokratik islohotlar siyosatini keng qo'llab-quvvatlayotganidan, ikkin-

instituti faoliyati, xususan, konstitutsiyaviy shikoyat institutini yanada takomillashtirish, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini munosib himoya qilish Konstitutsiyaviy sud organlarining birinchi galdagi vazifasi sifatida belgilangan bunda muhim omil bo'layotgani alohida ta'kidlandi.

Osiyo Konstitutsiyaviy sudlari va ekvivalent institutlari uyushmasi bilan ham hamkorlik yo'lga qo'yildi. Ushbu uyushmaga a'zo 18 davlat vakillari bilan ikki va ko'p tomonlama muloqotlar o'tkazib kelinmoqda. Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston hamda Ozarbayjon Konstitutsiyaviy sudlari bilan imzo-

langan memorandumlar asosida samarali hamkorlik qilinmoqda.

Shuningdek, vakillarimiz o'zaro tajriba almashish, malaka oshirish va aloqalarni mustahkamlash yo'nalishida qator xalqaro tadbirlarda ishtirok etdi. Joriy yilda Sankt-Peterburg shahrida o'tgan "Konstitutsiya va konstitutsiyaviy nazorat: rivojlantirish doktrinasini takomillashtirish amaliyoti" mavzusidagi XI xalqaro yuridik forum, Koreya Respublikasining Seul shahrida bo'lib o'tgan Osiyo Konstitutsiyaviy sudlari va ekvivalent institutlari uyushmasining "Odil sudlovni ta'minlash: konstitutsiyaviy istiqbol" mavzusidagi navbatdagi xalqaro simpoziumi, Qirg'iziston Konstitutsiyasi qabul qilinganining 30 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan "Konstitutsiya huquqiy, demokratik davlat barpo etishning asosi sifatida" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi, Ozarbayjon Konstitutsiyaviy sudining 25 yilligi munosabati bilan o'tgan "Konstitutsiya normalari qo'llash orqali qonunchilikni rivojlantirish" mavzusidagi xalqaro konferensiyasi, Turkiy dunyo konstitutsiyaviy yurisdiksiyalari konferensiyasining (TURK — AY) birinchi yig'ilishi, Anqara shahrida (Turkiya) Osiyo konstitutsiyaviy sudlari va ekvivalent institutlari uyushmasiga a'zo davlatlar vakillari uchun "Sud mustaqilligi adolati sudlov huquqining kafolati" mavzusidagi XI yozgi maktab dasturi shular jumlasidan.

Shuningdek, mutaxassislarimiz Jakarta shahrida Indoneziya Konstitutsiyaviy sudi tashkil etilganining 20 yilligi munosabati bilan o'tgan "Demokratiya, raqamli transformatsiya va sud mustaqilligi" mavzusidagi VI xalqaro o'quv kursi kabi tadbirlarda ham qatnashdi.

Bunday xalqaro tadbirlar yurtimizdagi konstitutsiyaviy islohotlarning yuksak samaralariga oid ma'lumotlarni xorijiy mamlakatlar vakillariga bevosita yetkazish, konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirish sohasida tajriba almashish, xorijiy mamlakatlar tajribasi bilan yaqindan tanishishda muhim minbar bo'lib xizmat qiladi.

Xalqaro forumlar ishtirokchilariga mamlakatimizda kechayotgan konstitutsiyaviy islohotlar haqida batafsil axborot berildi. Jumladan, joriy yilda bo'lib o'tgan referendumda yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati, inson huquq va erkinliklariga oid normalar, shuningdek, Konstitutsiyada ilk bor belgilangan konstitutsiyaviy shikoyat institutining ahamiyati yoritildi.

Konstitutsiyaviy sud ishini samarali tashkil etish va faoliyatini muntazam takomillashtirish, sudya va xodimlar malaka va ko'nikmalarini boyitib borish yo'nalishi Konstitutsiyaviy sudning eng muhim vazifalaridan biridir. Zero, yuqori malakali xodimlar Konstitutsiyaviy sudning samarali faoliyati garovidir.

Umuman olganda, Konstitutsiyaviy sudning tobora takomil topib borayotgan faoliyati nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan haqli ravishda jahonning eng tinch va osoyishta, dadil rivojlanayotgan mamlakatlaridan biri sifatida e'tirof etilgan yangi O'zbekistonni barpo qilishdek ezgu maqsadga erishish yo'lida Bosh qonunimizga tayangan holda konstitutsiyaviy qonuniylikni yanada mustahkamlash, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini keng va samarali ta'minlashga qaratilgandir.

TAHLIL VA TAQQOS

# XIZMAT KO'RSATISHNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI

## sohada o'sish bor, ammo yetarli emas



**Obid HAKIMOV,**  
Iqtisodiy tadqiqotlar va  
islohotlar markazi  
direktori

Boshlanishi 1-betda

Joriy yilda xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiyotdagi ulushi 43,5 foizga yetadi, biroq davlatimiz rahbari yig'ilishda ta'kidlaganidek, bu yetarli emas, chunki ko'plab mamlakatlarda bu ko'rsatkich 50 foizni tashkil etadi. Masalan, Koreyada 57 foizga, Malayziyada 59 foizga, Gruznyada 60 foizga, Qozog'istonda 62 foizga yetadi. Shuning uchun ham O'zbekistonda xizmatlar hajmi o'sishini yiliga kamida 17 foizdan ko'prog'a oshirishni ta'minlash zarur. Ammo yuqorida qayd etilganidek, o'tgan 11 oy davomida 421 trillion so'mlik xizmatlar ko'rsatildi. Bu 2022-yildagiga solishtirganda atigi 13,6 foizga ziyod. Vaholanki, moliya, transport, turizm, ta'lim, tibbiyot va axborot texnologiyalari sohalarida xizmat ko'rsatishni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud.

### Moliyaviy xizmatlar hajmi 5 barobar oshdi

Keyingi yillarda moliyaviy xizmatlar sohasida ham sezilarli o'sish kuzatildi. Sohada



96 565,1 milliard so'mlik moliyaviy xizmatlar ko'rsatildi, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 120,2 foizni, ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi esa 23 foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar sohasining rivojlantirish, birinchi navbatda, biznesning rivojlanishi hamda uni moliylashtirishning kengayishi bilan bog'liq. Shu maqsadda yaqinda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash uchun Tadbirkorlikni rivojlantirish banki va o'rta biznes bilan ishlashga ixtisoslashgan Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi tashkil etildi. Yangi bankka 300 million dollar va 1 trillion so'm, yangi ochilgan kompaniyaga esa 1,5 trillion so'm o'tkazib berildi. Bu esa biznesni moliylashtirish hajmini kengaytirishga imkon beradi va o'z navbatida, moliyaviy xizmatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yig'ilishda Prezidentimiz 2024-yilda moliyaviy xizmatlar bozorini jadal rivojlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ko'rsatib o'tdi.



amalg oshirilgan islohotlar natijasida 6 yil ichida moliyaviy xizmatlar hajmi 5 barobar oshib, 80 trillion so'mni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlarning jami xizmatlar hajmidagi ulushi 2017-yildagi 18,1 foizdan 2022-yilda 22,5 foizgacha ko'paydi. Joriy yilning 11 oyida

2024-yil 1-yanvardan asosiy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi mikromoliyaviy banklar faoliyati yo'lga qo'yildi. Ularga aholidan omonatlar qabul qilish, to'lovlarni amalga oshirish, chet el valyutasida kreditlar jalb qilishga

ruxsat beriladi. Shundan kelib chiqqan holda, kelasi yilda moliyaviy xizmatlar hajmi 30 foizga oshib, 140 trillion so'mga yetishi kutilmoqda.

Shuningdek, tadbirkorlikni rag'batlantirish maqsadida "Oilaviy tadbirkorlik" dasturi doirasida o'z kichik biznesini ochgan va ijroiy kredit tarixiga ega aholiga 50 million so'mgacha, tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish istagidagi aholiga 100 million so'mgacha garovsiz kreditlar berishni yo'lga qo'yishga qaror qilindi. Bunga 200 million dollar ajratildi.

O'zini o'zi band qilganlarga biznesga birinchi qadam uchun kreditlar berish taklifi ma'qullandi. Bu toifaga kiruvchilar soni bugungi kunda 2,4 million nafarga teng.

340 ming so'mlik yillik ijtimoiy soliqni to'lagan fuqarolarga imtiyozli kredit ajratilib, bank kartasiga "onlayn" tarzda o'tkaziladi. Kelgusi yilda buning uchun 100 milliard so'm ajratiladi. Bundan tashqari, faoliyatini kengaytirib, tadbirkor bo'lish istagidagi aholiga 100 million so'mgacha garovsiz kredit ajratiladi, 50 foiz bank kartasiga o'tkazib beriladi. Buning uchun 1 trillion so'm yo'naltiriladi.

Umuman, 2024-yilda yig'ilishda ochiqqan choralar hisobiga yana 2 million kishi tadbirkorlikka jalb etiladi. Bundan tashqari, yig'ilishda xalqaro kapital bozorlarida 500 million dollarlik yevrobonklar joylashtirish bo'yicha ish olib borilayotgani ham qayd etilgani, bu moliyaviy xizmatlar bozori kengayishi uchun muhim rag'batlardan bo'lishi kutilmoqda.

### Transport xizmati sifati oshiriladi

Transport xizmatlari O'zbekistonning iqtisodiy o'sishini dastaklashda muhim rol o'ynamoqda. Infratuzilmaning yaxshilanishi barobarida transport xizmatlari hajmi 6-yil ichida 1,5 barobar oshib, 81 trillion so'mga yetdi. Bugungi kunda mamlakatimizda jami xizmatlar hajmining chorak qismi transport sohasiga to'g'ri keladi. Joriy yilda sohaning o'sish sur'ati 8,8 foizni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining yarmi avtomobil transporti hissasiga to'g'ri keldi. Ammo yig'ilishda ta'kidlangani kabi joriy yilda 1500 atrofida avtobus import qilinishiga qara-

masdan ushbu yo'nalishdagi xizmatlarning o'sishi 5,5 foizdan oshmadi. 2024-yil 1-iyulga qadar yana kamida 1200 ta avtobus xarid qilinib, yo'nalishlarga chiqarilishi, bu orqali 4 mingga ish o'rni yaratilishi rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, yil davomida Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston bilan avtobus qatnovi ikki barobar ko'paytirildi. Shuningdek, rag'batlantirish mexanizmlari yordamida 300 ming taksi haydovchisi rasmiy faoliyat yuritishga o'tadi (2023-yilda bu ko'rsatkich 100 mingga teng bo'ldi).

2023-yilda temir yo'l transporti sohasida muhim qarorlar qabul qilindi. Xususan, tariflar qayta ko'rib chiqildi va ortiqcha imtiyozlar bekor qilindi. Yig'ilishda 6 ta tezyur poyezd va 30 ta elektroypoyezd olib kelish jarayonida ekanini qayd etildi. Bu kelasi yili ushbu sohada 20 foiz o'sishni ta'minlaydi.

Aviatsiya xizmatlari bozorida ham jiddiy islohotlar amalga oshirildi. Natijada tarmoqda raqobat yuzaga keldi, 6 ta xususiy kompaniya ish boshladi. Yil boshidan buyon 25 ta yangi samolyot keltirilib, 17 ta yangi havo yo'llari ochildi. Shunga qaramay, yig'ilishda ta'kidlanganidek, sohada xizmatlar hajmi atigi 7,7 foizga oshdi. Shu bois, 2024-yilda aviataxshuvlar hajmini 20 foizga oshirish topshirig'i berildi.

### Tibbiyot va ta'lim

O'zbekistonda tibbiyot va ta'lim xizmatlari jadal rivojlanmoqda. Masalan, uy xo'jaliklarining jami maishiy xarajatlarda tibbiy xizmatga sarflanadigan qismi 2000-yildagi 9,6 foizdan 2019-yilda 13,2 foizgacha doimiy oshib bordi. 2021-yilda kuzatilgan pandemiya davrida esa 18,2 foizga yetdi, keyin keskin pasayib, 2022-yilda 9,7 foizga tushdi. 6 yil davomida shifoxonalari soni 187 taga yoki 2017-yilga nisbatan 16 foizga ko'paydi. 2022-yil oxirida esa bu ko'rsatkich 1322 tani tashkil etdi. O'z navbatida, shifoxona o'rnlari soni 25 foizga oshib, 2017-yildagi 135,7 mingdan 2022-yilda 170 mingtaga yetdi.

Eng muhimi, islohotlar jarayonida tibbiyot va ta'limning xususiy sektori rivojlanmoqda. Prezidentimiz yig'ilishda ta'kidlaganidek, bu sohalarining salohiyatidan to'liq foydalanish uchun aholiga yaqin, kompleks xizmat

ko'rsatish mumkin bo'lgan joylardan yer ajratish kifoya, qolganini tadbirkorlarning o'zi eplaydi.

Masalan, Toshkent shahrida maktablar, bolalar bog'chalari, shifoxonalarda hududlarda 46 gektar bo'sh yer bor. Bu hududlarda xususiy klinikalar va ta'lim tashkilotlari ochish, 1 trillion so'm sarmoya jalb etish hamda qo'shimcha 500 milliard so'm byudjet tushumlarini ta'minlash mumkin.

Shu munosabat bilan 1-feralgacha markaziy shifoxona, maktab va kollejlarda hududidagi bo'sh yerlarni aniqlab, tegishli yo'nalishlar bo'yicha auktsionga qo'yish bo'yicha topshiriq berildi. Xuddi shunday namunaviy loyiha asosida Toshkent shahrida 5 ta, Samarqand shahrida 3 ta, boshqa viloyatlar markazlarida 2 ta va 300 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladigan 8 ta tumanda 1 tadan xususiy maktab uchun yer uchastkalari sotuvga chiqarilishi kerak.

### IT xizmatlar eksport hajmi 600 million dollarga yetkaziladi

So'nggi yillarda IT xizmatlar sektori jadal rivojlanmoqda. O'tgan 6 yilda IT xizmatlar sohasida xizmatlar hajmi 3 barobar oshib, 2017-yildagi 8 trillion so'mdan 2022-yilda 23,5 trillion so'mgacha o'sdi, o'sish sur'ati yiliga o'rtacha 20 foizni tashkil etdi. Axborot texnologiyalari xizmatlari eksporti hajmi 2017-yildagi 151 million dollardan 2022-yilda 306 million dollargacha ko'paydi. 6 yil davomida jami 3 milliard dollarlik investitsiyalar jalb qilindi. Bugungi kunda IT xizmatlarning O'zbekiston YAImdagi ulushi 3-3,5 foizni tashkil etadi.

Ta'kidlanganidek, IT xizmatlar sohasi iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali nafaqat ushbu yo'nalishga, balki boshqa tarmoqlar rivojiga ham katta turtki bermoqda. Masalan, Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, raqamli iqtisodiyot jahon yalpi ichki mahsulotining 15 foizini tashkil etadi va so'nggi 10 yil ichida iqtisodiy o'sishdan 2,5 barobar tezroq o'smoqda. Ya'ni, shuningdek, 2022-yilda raqamli iqtisodiyotning O'zbekiston YAImdagi ulushi 2020-yildagi 1,99 foizdan 2,77 foizgacha oshganini ham alohida ta'kidlash joiz.

2024-yilda bu sohada xizmatlar hajmini 41 trillion so'mga yetkazish, eksport hajmini 2023-yildagi 300 million dollarga nisbatan ikki barobar oshirish, yil davomida IT xizmatlar hajmini kamida 30 foizga oshirishni ta'minlash muhimligi qayd etildi.

### 600 ta mehmonxona va mehmon uyi quriladi

Yig'ilishda turizmni rivojlantirish masalasi ham katta e'tibor qaratildi. Mamlakatimiz ulkan sayohat salohiyatiga ega, undan samarali foydalanish bo'yicha ko'rilayotgan amaliy sa'y-harakatlar natijasida imkoniyatlar izchil yuzaga chiqarilmoqda. 2022-yilda turistik xizmatlar eksporti hajmi 1,61 milliard dollarga yetdi. 2021-yilda bu ko'rsatkich 296,4 million dollarga, 2019-yilda esa 1,3 milliard dollarga teng bo'lgan. 6 yil ichida turizm xizmatlari eksportining umumiy hajmi 5,13 milliard dollarni tashkil etdi.

Turizmning mavjud salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun kelasi yili 32 million sayyoh

tashrifini ta'minlash zarurligi ta'kidlandi. Buning uchun kamida 600 ta mehmonxona va mehmon uylarini qurish kerak.

"Kichik va o'rta shaharlarni rivojlantirish" loyihasi doirasida Omonxona va Maydanak kabi turistik obyektlar infratuzilmasini yaxshilashga 30 million dollar yo'naltiriladi. Yana 300 sayyohlik obyektlariga olib boruvchi yo'llarni yaxshilash uchun qo'shimcha 200 milliard so'm ajratiladi. Ularga olib boruvchi yo'llarni ta'mirlash bilan bir qatorda, turistik obyektlar bo'yib savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalarini joylashtirish vazifasi qo'yildi.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, Birlashgan Arab Amirliklari, Misr, Turkiya va Italiya kabi mamlakatlarga ko'p hollarda sayyohlarni zargarlik buyumlarini sotib olish imkoniyati jalb etadi. Mamlakatimizda buning uchun yetarli shart-sharoit mavjud bo'lsa-da, so'nggi ikki yilda bor-yo'g'i 4 tonna (500 million dollar) oltin sotilgan, holbuki, O'zbekistonda yillik zargarlik buyumlari bozori 1 milliard dollardan ortiqni tashkil qiladi.

Shu munosabat bilan kelasi yildan boshlab har bir viloyatda zamonaviy zargarlik majmualari tashkil etish bo'yicha topshiriq berildi. Dubay tajribasidan kelib chiqib, kelgusi yili har bir hududda 100 million dollarlik zamonaviy zargarlik majmualari joylashtiriladi. Mazkur majmualardagi do'kon va rastalar, zargarlik faoliyatini bank va "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish" kompaniyasi ko'magida 7-yildan keyin to'lov sharti bilan ijaraga beriladi. Shuningdek, yig'ilishda bozorlarni mizning sotuvchi va xaridorlar, sayyohlar uchun qulayligini oshirish lozimligi qayd etildi. Shu munosabat bilan bozorlarimizni sayyohlar kunlab vaqtini o'tkazishi mumkin bo'lgan majmualarga, mamlakatimizning "tashrif qog'ozi"ga aylantirish muhimligi ta'kidlandi. Mazkur chora-tadbirlar natijasida xizmat ko'rsatish va turizm sohalarida 2 milliarddan ortiq kishini ish bilan ta'minlash imkoniyati yaratilishi ta'kidlandi.

### Xulosa

Boshqa mamlakatlardagi iqtisodiy tendensiyalardan kelib chiqib, shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasining rivoji ancha yuqori, ammo hali to'liq amalga oshirilmagan salohiyatga ega. Yig'ilishda asosiy e'tibor aynan xizmat ko'rsatish sohasida hududiy salohiyatni rivojlantirishga qaratildi.

Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish sohasining jahon tendensiyalaridan kelib chiqib, kelajakda talab tobora ortib borayotgan sohalariga alohida e'tibor qaratish zarur. Birinchidan, bu IT xizmatlar — hayotning barcha jabhalarini qamrab olayotgan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning asosidir. Ikkinchidan, ta'lim xizmatlari, uning sifatini oshirmasdan turib raqamli iqtisodiyot uchun malakali kadrlar tayyorlash mumkin emas. Uchinchidan, aholining umr ko'rish davomiyligi oshgani sayin tibbiy xizmatlar yo'nalishiga talab ortib boradi.

O'zbekiston bo'yib inson kapitali sifati yaxshilanib, odamlarning hayoti yanada farovonlashishi uchun mamlakatimizning barcha mahallalarida ushbu xizmatlarning yuqori sifati va mavjudligini ta'minlash zarur. E'tiborli jihati, yig'ilishda qabul qilingan qarorlar ham aynan shunga qaratildi.

### JARAYON

## KICHIK KOMPRESSORLAR: QISQA VAQT VA KAM XARAJAT

Mirishkor tumani hududining asosiy qismi cho'ldan iborat. Qashqadaryo viloyati markazidan deyarli to'qqon kilometr yo'l yurib, keng sahroga kirib borasiz. Atrofga ko'z tashlab, tekislikning oxirini topolmaysiz. Bu yerda neftchilardan boshqa biror kishini uchratish amri mahol. Qish ayozini junjiktiradi. Izg'irin ko'z ochishga qo'ymaydi. Biror panadan issiqroq joy qidirasiz. Ammo shunda ham neft-gaz sohasi mutaxassislari gaz quduqlarini nazorat qilib yuradi. Ular belgilangan ish tartibidan bir daqiqa bo'lsa-da chiqmaydi. Boisi, tinimsiz daqlayotgan uskunalar nazoratsiz qoldirib bo'lmaydi. Agar e'tiborsizlik qilinsa, butun tizim to'xtab qolishi mumkin.

Bugun cho'l bag'ridagi quduqlardan yiliga millionlab kub metr gaz qazib olinmoqda. Ayrim quduqlar ochilganiga 40-50 yildan oshgan bo'lsa, ba'zilar yaqin yillarda ishga tushirilgan. Ammo ancha yillardan buyon foydalanilib kelinayotgan konlarda bir oz gaz bosimi pasayishi sohaga yangicha yondashuvni taqozo etmoqda. Shu bois, mutasaddilar yangi loyihalarni ustida ishlashdan bir dam to'xtatayotgani yo'q.

Joriy yilda "O'zbekneftgaz" AJ tomonidan bosimi tobora pasayib borayotgan ayrim konlarda tabiiy gaz qazib chiqarish hajmini barqaror saqlab turish maqsadida kichik kompressor stansiyalari qurish loyihasi amalga oshirilmoqda. Mutaxassislar e'tiroficha, bu kichik stansiyalar qurilishi qisqa vaqt va kam mablag' talab etishi bilan ham ahamiyatlidir.

Xuddi shunday ikkita stansiya Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi-



ga qarashli, Mirishkor tumani hududidagi Cho'lquvar va Girsan konlarida ikki oy muddatda qurilib, ishga tushirildi.

Bu kichik kompressor stansiyalari Cho'lquvar va Girsan konlarida barqaror gaz bosimini ta'minlaydi.

Konchilarning ma'lumotlariga ko'ra, Girsan koni 1989-yilda, Cho'lquvar koni esa 2007-yilda o'zlashtirilgan. Uzoq yillar davomida ishlatilishi konlarda qazib chiqarish hajmi pasayishi, zaxiralar va qatlam bosimi tabiiy tushishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitda gazni barqaror yetkazib berishda konlarda kichik kompressor stansiyalari o'rnatilishi texnologik yechimdir.

Yangi stansiyalarimiz ishni ancha osonlashtiradi, — deydi Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi bosh texnolog O'rol Bozorov. — Ulardan muayyan vaqt foydalanib bo'lgach, keyinchalik boshqa joyga ko'chirib ishlatish ham mumkin. Barcha jarayon raqamlashtirilgan va kompyuter orqali kuzatib turiladi. Uskunalarining qaysidir qismida o'xtash, nosozlik qayd etilisa, shu vaqtning o'zida xabar topish imkoni mavjud.

Yangi ish boshlagan kompressor stansiyalari quduqlardan kelayotgan 1 atmosfera bosimi ostidagi tabiiy gazni 10 atmosfera bosimida Pomuq konidagi bazaviy kompressor stansiyalariga, keyin esa oltingugurt birikma-

laridan tozalash maqsadida Muborak gazni qayta ishlash zavodiga 50 kilometr masofaga quvurlar orqali yetkazib berishni ta'minlaydi.

Stansiyalarni elektr energiyasi bilan ta'minlash maqsadida yuqori kuchlanishli havo elektr tarmog'i va nimstansiyalar ishga tushirildi. — Cho'lquvar stansiyasi agregatlari ayni paytda test rejimida ishlamoqda, — deydi Muborak neft-gaz qazib chiqarish boshqarmasi bosh muhandisi Dilmurod Qurbonov. — Xitoylik mutaxassislar tomonidan o'rnatilgan uskunalar ishlayotgan jarayoni kuzatib borilmoqda.

Ushbu hududda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar bilan hamkorlik natijasida "O'zbekneftgaz" AJ tomonidan Yangi Olot konidan qazib olinayotgan kunlik 1,5 million kub metr tabiiy gazni Quvachi — Olot gazni dastlabki tayyorlash qurilmasi quvurlar orqali uzatish loyihasi ham amalga oshirilmoqda.

Yangi gaz quvuri ishga tushirilishi bilan Yangi Olot va Tegirman konlari gaz uzatish tizimidagi mavjud quvurlarda gidravlik qarshiliklarni kamaytirish hisobiga quduqlardan gaz qazib olishni kunlik qo'shimcha 500 ming kub metrqa oshirishga erishiladi.

**Akbar RAHMONOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

www.yuz.uz

yuz.uznews

yuz.official

**E'TIROF**

“ O'ZBEKISTONIMIZDA OLIB BORILAYOTGAN KENG KO'LAMLI YANGILANISH VA O'ZGARISHLAR NAFAQAT YURTDOSHLARIMIZ, BALKI DUNYO HAMJAMIYATI TOMONIDAN HAM KENG E'TIROF ETILMOQDA, QO'LLAB-QUVVATLANMOQDA. BU ESA BIZ, ILM AHLINI YANADA IZLANISHGA, YANGILIK YARATISHGA, IXTIRO VA KASHFIYOTLAR QILISHGA UNDAYDI. ”



**Axmed REYMOV, Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universiteti rektori, akademik**

➤ Boshlanishi 1-betda

Darhaqiqat, ilm ma'naviyatning muhim tarkibiy qismi bo'lib, insonni kamolotga yetaklaydi, unga hurmat va obro'-e'tibor keltiradi. Bilimli kishi samarali ijodiy va ilmiy ishlari bilan el orasida hurmat topadi, jamiyat ro'yxiga hissa, xalqi va Vatani obro'siga obro' qo'shadi.

O'tgan hafta men ham Prezidentimiz farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi etib tasdiqlandim. Bu men uchun g'oyat sharaflar bilan birga, yelkama ulkan mas'uliyat ham yuklaydi.

Men 1999-2002-yillarda O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo institutida aspiranturada o'qidim. O'qish davomida mahalliy xomashyo, ya'ni Markaziy Qizilqum fosforitlari asosida fosforli mineral o'g'itlar olish bo'yicha ilmiy tadqiqot olib bordim. Boyitilmagan Qizilqum fosforitlarini kam me'yori nitrat kislotasi bilan qattiq fazali rejimda

**ORZULAR RO'YOBI – ILMGA VA UNI O'RGANISHGA QARATILAYOTGAN E'TIBOR NATIJASI**

parchalash jarayonini o'rganib, tarkibida fosfor, azot va suvda eruvchan nitrokalsiyfosfat (NKFO) ishlab chiqarish texnologiyasini yaratdim.

2004-yilda "Qizilqum fosforitlarini kam me'yori nitrat kislotasi bilan parchalash asosida nitrokalsiyfosfat va nitrokalsiy-sulfosfat o'g'itlarini olish texnologiyasini yaratish" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildim va o'tkazilgan ilmiy tajribalar asosida olingan natijalar "Samarqandkimyo" AJ korxonasi-da ishlab chiqarishga tatbiq etildi. Bugungi kungacha "Samarqandkimyo" AJda 316,5 milliard so'mlik 600 ming tonnadan ziyod

NKFO ishlab chiqarildi. 4,35 million AQSH dollari qiymatidagi 30 ming tonna o'g'it eksport qilindi.

2006-2008-yillarda O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti doktoranturasida tahsil olib, Markaziy Qizilqum fosforitlaridan fosforli va murakkab azotfosforli mineral o'g'itlar kimyosi va texnologiyasining ilmiy asoslarini yaratish bo'yicha tadqiqot

Shuningdek, 2014-yilda "Markaziy Qizilqum fosforitlari asosida fosforli va murakkab azotfosforli o'g'itlar olish texnologiyasini ishlab chiqarish" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildim. Ammiakli selitra suyuqligi va Markaziy Qizilqum fosforitlari asosida jahon amaliyotida o'xshashi bo'lmagan portlash xavfi kam ammiakli selitra ishlab chiqarishning noyob texnologiyasini yaratdim. U "Navoiyazot" AJda tatbiq etildi. Natijada qiymati 240 milliard so'm bo'lgan 493 ming tonnadan ortiq AFO ishlab chiqarildi, jumladan, qiymati 7,8 million dollardan ortiq 36 ming tonna o'g'it xorijga eksport qilindi.

Bundan tashqari, "Bentonit qo'shimchali issiqlikka chidamli ammiak selitrasini olish texnologiyasini ishlab chiqarishga joriy etish" mavzusida innovatsion loyiha va "Ammoniy selitrasini termik barqarorligini oshirishning fizika-kimyoviy asoslarini ishlab chiqarish" mavzusida fundamental tadqiqotlarni bajardik hamda termik barqarorlikka ega bentoselitra ishlab chiqarish texnologiyasini yaratildi. Natijada 3,5 milliard so'mlik 3000 tonnadan oshiq bentoselitra ishlab chiqarildi va hozirda uni eksport qilish bo'yicha Xitoy, Gruzniya va boshqa davlatlar bilan muzokaralar olib borilmoqda.

2007-yili "Iste'dod" jamg'armasi tanlovi g'olibi sifatida Xitoy Xalq Respublikasining Shanxi universitetida kimyo va biotexnologiya yo'nalishi bo'yicha, 2015-yilda Hindistonning Faridobod shahrida O'g'itlar sifatini nazorat qilish va o'rganish institutida malaka oshirdim. 2017-yildan buyon

Qoraqalpog' davlat universiteti rektori vazifasida ishlab kelyapman. O'tgan qisqa vaqtda universitetda ta'lim sifatini oshirish, ilmiy salohiyatni yuksaltirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, professor-o'qituvchilar malakasini oshirish yuzasidan salmoqli ishlar qilindi.

2019-yildan buyon universitet huzurida texnika, biologiya, tarix, iqtisodiyot, filologiya, xorijiy filologiya, yuridika va geografiya fanlari bo'yicha ilmiy daraja beruvchi 8 ta ilmiy kengash faoliyat yuritmoqda. Shu kunga qadar mazkur ilmiy kengashlarda 148 ta dissertatsiya muvaffaqiyatli himoya qilindi.

Qoraqalpog' davlat universiteti nufuzli xalqaro reyting tashkiloti hisoblangan Times Higher Education ko'rsatkichining 2022-yilga belgilangan Impact reytingiga (THE Impact Rankings 2022) kirish uchun davog'ar sifatida mamlakatimizdagi 30 ta oliy ta'lim muassasasi qatorida 7-o'rinni egalladi. Shuningdek, 2022-yilda dunyo bo'yicha 15 mingdan ortiq OTM ishtirok etgan Top Universities Ranking 2022 reytingiga QDU 2543 o'rin, Osiyo mintaqasida 675-, O'zbekiston bo'yicha esa 2-o'rinda qayd etildi.

Respublika oliy ta'lim muassasalari reytingiga QDU 2020-yilgi faoliyati bo'yicha 37-o'rindan 2021-yilgi faoliyati natijalariga ko'ra 29-o'ringa ko'tarildi.

Ushbu reyting ko'rsatkichlarida universitet muayyan baholash mezonlari, xususan, ilmiy maqolalardan iqtiboslar bo'yicha 2-o'rinni egallagan bo'lsa, ijtimoiy-gumanitar soha bo'yicha Scopus

bazasidagi ilmiy jurnallarda ilmiy maqolalar chop etish ko'rsatkichida 5-o'rinni, ilmiy daraja va unvonlar olish borasida O'zbekiston OTMlari orasida 10-o'rinni egalladi. 2022-yil noyabr oyida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatining oxirgi besh yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan hisobot reytingida Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universitetining ilmiy tadqiqotlar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, ilmiy innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish va iqtidorli talabalarining ilmiy tadqiqot ishlari tashkil etish borasidagi faoliyati samaradorligi bo'yicha mamlakatimizdagi 190 ga yaqin oliy ta'lim muassasalari o'rtasida TOP-5lik OTMlari qatoridan o'rin oldi.

Bularning bari Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirish, olim va tadqiqotchilarni qo'llab-quvvatlash, ular faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha qilinayotgan ishlar natijasidir. O'zbekistonimizda olib borilayotgan keng ko'lami yangilanish va o'zgarishlar nafaqat yurtdoshlarimiz, balki dunyo hamjamiyati tomonidan ham keng e'tirof etilmoqda, qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu esa biz, ilm ahlini yanada izlanishga, yangilik yaratishga, ixtiro va kashfiyotlar qilishga undaydi.

**“YANGI O'ZBEKISTON” MINBARI**



**Abdidasul JUMAQL, "Hurriyat" gazetasi bosh muharriri**

22-dekabr kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida bo'lib o'tgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisi shak-shubhasiz tarixiy anjuman bo'ldi. Negaki, unda davlatimiz rahbarining kuyinchaklik bilan so'zlagan nutqi nafaqat ziyolilarni, balki uyg'og' qalbi har bir yurtdoshimizni to'qlinlantirib yubordi, ilhom va ma'naviy jo'shqinlik baxsh etdi, desak xato bo'lmaydi.

Albatta, yurtimizda keyingi yillarda ma'naviyat ma'rifat sohalarida juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Ijod ahli, ma'naviyat ahli har tomonlama qo'llab-

quvvatlanmoqda. Davlatimiz rahbari o'z nutqida ta'kidlaganidek, yurtimizda 2023-yilda birgina madaniyat va san'at sohasiga 712 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirilgani va bu 2017-yilga nisbatan taqqoslanganda besh barobardan ortiq ekanligi bejiz emas.

O'yab ko'ring, ma'naviyat va ma'rifat sohasiga nega bu qadar katta e'tibor qaratilmoqda? Nega ilm-fanga, ta'limga, milliy o'zligimiz oydinlari bo'lgan jaded bobolarimiz qoldirgan ma'naviy merosni o'qib-o'rganishga da'vat qilinmoqda?

Chunki "Ma'naviyatsizlik va g'oyasizlik har qanday jamiyatni tanazzul sari yetaklashi, davlat siyosati va boshqaruvini kuchsizlantirishi, korrupsiya, jinoyatchilik va axloqsizlik kabi illatlarning lidiz otishiga sabab bo'lishi bilan bog'liq misollarni insoniyat tarixidan ko'plab keltirish mumkin", deb yozgan edi Prezidentimiz o'zining "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" kitobida.

Darhaqiqat, odam bolasi qancha umr ko'rsa ham, qanchalik moddiy tomondan to'kis bo'lsa-da, ma'naviy dunyosi kambag'al, ma'rifatdan yiroq bo'lsa, bularning bari bekor, barcha sa'y-harakatlari besamar bo'ladi, alaloqibat hech narsaga arzimaydi.

Davlatimiz rahbari o'zining tarixiy nutqida dastlab bugun dunyoda kechayotgan tahlikali vaziyatlarga e'tibor qaratar ekan, eng avvalo, yurtimiz mustaqilligini, hur va ozodligini asrash, har bir vatandoshimizning turli buzg'unchi, chalg'ituvchi g'oyalardan ogoh bo'lishi lozimligini bejiz bot-bot ta'kidlab o'tmadi. Boisi, so'nggi vaqtlarda dunyoda nafaqat qirg'inbarot urushlar, xunrezliklar, vayronagarohlilik bilan bir qatorda, borgan sari mafkuraviy kurashlar, tahdidlar ham avj olib bormoqda. Xususan, o'zini "siyosatdon" deb bilguvchi ayrim qudratli davlatlarning vakillari



Hakim Yoldoshev olgan surat.

Yangi yilning birinchi sanasidan boshlab yurtimizda "Jadid" nomli gazeta chiqa boshlaydi. Demak, yurt qayg'usi bilan jonlarini fido qilgan ma'rifatparvar, elparvar bobolarimizning asarlarini, buyuk merosini o'qib-o'rganish, targ'ibot-tashviqot qilish yo'lida katta bir minbarga asos solindi.

hatto tajovuzkorona fikrlar bildirayotgani tashvishlidi.

Yuqoridagi holatlar haqida Prezident Shavkat Mirziyoyev so'z yuritir ekan, bunday makkorona chiqishlarga yurtimiz ziyolilarining o'z vaqtida munosib javob qaytara olishi, g'oyaviy-mafkuraviy sohada xalqimizning ilg'or fikri qatlamini raqobatga tayyormi, yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab

zamon talablariga javob beryaptimi, degan haqli savollarni o'rta qo'yish zarur.

Darhaqiqat, bugun ijtimoiy tarmoqlarni, turfa xil internet nashrlarini kuzatadigan bo'lsak, ularda buzg'unchilikka, qo'poruvchilikka da'vat etayotgan yoki milliy qadriyatlarimizga zid bo'lgan ayrim fikrlarni o'rta qo'yayotganlar ham yo'q emas.

O'zini "siyosatdon" deb bilguvchi ba'zi bir xorijiy yurtlardagi ayrim kimsalar esa hatto zo'ravonlikni, yurt daxlsizligiga, hurligiga rahna soluvchi bayonotlarni ham ochiqdan-ochiq bildirishdan qaytmayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Afsuski, ana shunday g'arazli fikrlarga keskin va munosib javob qaytarishga negadir xalqimizning eng ziyoli qatlamini hisoblanmish yuzuvchi va shoirlar, madaniyat va san'at namoyandalari, OAV vakillari o'z vaqtida munosabat bildiriyapti, deb bo'lmaydi.

Xalqimiz, barcha katta-yu-kichik hamisha ogoh bo'lishi lozim. Prezidentimiz jadidlarimiz merosini chuqur o'qib-o'rganishga, buyuk bobolarimizning jasoratini qalblarga singdirishga qilyotgan da'vatlari bejiz emas. Nega uzoq yillar davomida hatto nomlari ham aytilmay kelgan millat oydinlari bo'yicha O'zbekistonda xalqaro konferensiyalar tashkil etildi? Chunki tariximizning so'nggi yuz yildan ortiq davrida millatimizning buyuk armoni bo'lib kelgan bugungi istiqlol orzusi dastlab mana shu jadidlar ko'ksida nish otgan, ular ona Vatanimiz orzu-armonlari bilan maydonga chiqqan edi. Shu bois, ular birinchi bo'lib yurtimizda maktablar ochdi, birinchi bo'lib zamonaviy oliy maktab g'oyasini ilgari surdi.

O'nlab shirkatlar, jamiyatlar tashkil qilib, ular ko'magida qanchadan-qancha yoshlarni Ovrupo mamlakatlariga o'qishga yuborishga erishdi. Teatr va san'atni qo'llab-quvvatlash, yangi gazeta va jurnallar tashkil qildi. Maktablar uchun darsliklar yozishdi. Bir so'z bilan aytganda, xalqni oydinlik sari, mustaqillik sari boshladi. Sababi diniy va dunyoviy bilimga ega bo'lmagan millatning ertasi yo'qligini, erki omonat bo'lishini jadidlar juda yaxshi bilardi. "Millat ozod bo'lib, o'zining mustaqil davlatini o'ymatmuncha, ijtimoiy adolatni tiklab bo'lmaydi", deb yozgan edi Mahmudxo'ja Behbudiy.

Jadidlar bu qutlug' yo'lida xalqimiz ong-u tafakkurini yanada oshirish, charxlash uchun o'sha vaqtlarda "Oyina", "Vaqt", "Xurshid", "Najot", "Inqilob", "Turkiston", "Mehnat-kashlar tovushi", "Hurriyat", "Oydin", "Sadoi Turkiston" kabi o'nlab gazeta va jurnallar tashkil qildi. Ularga birinchi navbatda yuk-sak tafakkur, yurt ozodligi, hurligi, xalqning ma'rifatini o'stirish g'oyasi singdirilgan edi. Bejiz atqoli adib Abdulhamid Cho'lpon "Kishan kiyima, bo'yin egma, ki sen ham hur tug'ul'g'onseni!", deya jasorat bilan maydonga chiqmagani!

Yangi yilning birinchi sanasidan boshlab yurtimizda "Jadid" nomli gazeta chiqa boshlaydi. Demak, yurt qayg'usi bilan jonlarini fido qilgan ma'rifatparvar, elparvar bobolarimizning asarlarini, buyuk merosini o'qib-o'rganish, targ'ibot-tashviqot qilish yo'lida katta bir minbarga asos solindi.

"Bugun ma'naviyat boshqa sohalaridan o'n qadam oldinda yurishi, ma'naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak", dedi davlatimiz rahbari.

Yig'ilishda men ham qatnashib, hayajonimi yashirolmay, ikki og'iz fikr aytishga o'zimda kuch topa oldim. Bu kuchni menga Prezidentimizning "Kimning qanday fikri bo'lsa, savoli bo'lsa, tortinmasdan gapirsin", degan taklifi berdi. Ammo davlatimiz rahbarining yonida turib, mamlakatimizning ko'plab rahbarlari, ziyolilari oldida hayajonlanmasdan gapirishning o'zi qiyin ekan. Ochig'i, aytmog'chi bo'lgan gaplarimning ko'pini ayta olmadim. Lekin ayrim xususiy nashriyotlar faqat pul uchun sifatsiz va badiiy jihatdan juda bo'sh kitoblarni chop etayotgani, mamlakatimizda Yangi O'zbekiston g'oyasi, Uchinchi Rensnans po'vedevorini qurishdek ulkan islohotlar mazmun-mohiyatini yoritib borayotgan 20 ga yaqin asosiy nashrlarning ubunasini qiyin kechayotgani, buning oqibatida ne-ne mashaqqatlar bilan chop etilayotgan ana shu gazeta va jurnallardan xalqimiz bahramand bo'la olmayotgani zo'rg'a ayta oldim.

Ammo men ishonaman, keyingi 6-7 yil davomida jonajon O'zbekistonimizda ro'yobga chiqarayotgan ulkan natijalar, ishlar, yangiliklar oldida kamina o'rta qo'yayotgan masalalarning ijobiy hal bo'lishi hech gap emas. Men Prezidentimizga ana shu fikrimni katta yig'ilishda o'zim xohlagandek ayta olmadim. Ammo ana shunday ulug' minbar orqali dilimdagilarni bayon etayotganimdan baxtiyorman.

NUQTAYI NAZAR

# BOBOLAR ZIYOSI BOR aziz tuproq meniki



Davlatimiz rahbari 2017-yil 3-avgustda yurtimizning bir guruh ziyolilari bilan uchrashgani hamda adabiyot, ilm-fan, madaniyat, san'at ahlining qalbidagi og'riqli muammolarni bartaraf etish borasidagi o'z rejalarini bayon etgani kechagidek yodimda. O'shandan keyin, tan olish kerak, katta o'zgarishlar bo'ldi. Bir ijodkor sifatida adabiyot va adabiyot ahliga berilgan e'tibor xususida ikki og'iz to'xtalsam.



**G'ayrat MAJID,**  
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi o'rinbosari, shoir

Salkam to'qson yillik tarixida o'z binosiga ega bo'lmagan, ustozlar iborasi bilan aytganda, "Vatanda bevtan" yurgan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi uchun muhtasham koshona barpo etildi. Bu koshona sharq xalqlari me'morchiligi uslubida, qadim madrasalarni eslatadigan shaklda qur rostlandi. Bunda men ramziy ma'no tuydirdim: Yozuvchilar uyushmasi ham maktab kabidir. Adiblar va ular yaratgan asarlar esa muallimlar hisoblanadi. Bu o'qituvchilar millatimizga Vatani, Vatanga muhabbat va sadoqatdan saboq beradi.

Uning shundoqqina yonida Adiblar xiyoboni majmuasi bunyod etilgan. Yozuvchilar uyushmasida faoliyat yuritgan sabab, hamkasblar bilan deyarli har kuni bu manzilda mushoira kechalari, ustoz ijodkorlari bilan uchrashuvlar, adabiyotimizning ulug' namoyandalari xotirasiga bag'ishlangan

tadbirlar o'tkazib turamiz. Tez-tez xiyobonni sayr etish odatim bor. Sayr paytida farzandlarini yetaklagan ota-onalar, nabiralari boshlab yurgan bobo-momolarni ko'p uchrataman. Ular bu joyga alohida tayyorgarlik bilan kelmasa bo'lmaydi, mabodo farzand-u nabiralari biror-bir ulug' siymoning haykalgacha qarab, bu kishi nima ishlar qilgan, deb so'rasa, javob berolmay, uyatda qolmaylik-da, deyishadi.

Aytmoqchi bo'lganim, sobiq sovet davrida ham bu yerlar bog', bog'da katta ko'l bo'lgan. Ammo o'sha zamon bog'ining vazifasi bilan hozirgi xiyobonning xizmati o'rtasida katta farq bor. O'zbekiston Milliy bog'i tarkibidagi Adiblar xiyoboni, shubhasiz, millatimiz ma'naviyatiga xizmat qiladi. Shu ma'noda, bu manzili ADABIYOT BO'GI, MA'NAVIYAT BO'GI deb ham atash mumkin.

*Bulbulning sayrab-sayrab, yayragan bog' meniki, Yaqin-yiroq meniki, shu so'lu sog' meniki, Ko'kda porlagan quyosh, nurlu yonoq meniki,*

*Bobolar ziyosi bor, aziz tuproq meniki, Vatanim, davlatimning bemisli ardog'i bu,*

*Adiblar xiyoboni — adabiyot bog'i bu.*

Samarali ijod qilayotgan adiblarimiz imtiyozli asosda uy-joy bilan ta'minlandi. Atoqli ijodkorlarimizning tavallud sanalari nishonlash, hududlarda adabiyot kunlari o'tkazish xayrii an'anaga aylandi. Yosh iste'dodlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida Zomin seminari qayta tiklandi. Yozuvchilar uyushmasi tomonidan muntazam ravishda kitoblar chop etilmoqda. Dunyoning ko'plab ijodiy tashkilotlari bilan hamkorliklar o'z samarasini bermog'da. Natijada uyushma a'zolari jahonning nufuzli adabiy anjumanlari, tanlovlarida muntazam ishtirok etib, g'olib bo'lmoqda, adabiy almashinuvlar masalasida ezgu ishlarni amalga oshirmoqda.

"Do'stlar klubi" doirasida ham ko'p xayrli ishlar qilindi, buning o'zi alohida mavzu. Atoqli adiblar nomi bilan faoliyat yuritayotgan ijod maktablari esa hech bir davlatda muqobil yo'q ta'lim dargohi hisoblanadi. Ushbu ilm maskanlari haqiqiy ma'noda adabiyot, san'at va madaniyatni teran anglaydigan, his etadigan avlod tarbiyasida muhim rol o'ynashiga amin bo'lganmiz. Shukrki, ijod maktablari sekin-asta kutilgan samarani berayotir.

Yuz jildlik "Turkiy adabiyot durdonalari", o'ttiz jildidan iborat "Mustaqillik davri navoiyshunosligi", 16 jildlik "Qoraqalpog' adabiyot durdonalari" va "Mard askarga sovg'a" singari adabiy majmualar ma'naviy hayotimizda muhim voqea bo'ldi. Joriy yil 29-30-mart kunlari Navoiy shahrida "Mumtoz she'riyat" festivali bo'lib o'tdi. Unda dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan atoqli

2017-yildan bugungi kunga qadar davlatimiz tomonidan ijod va ijod ahliga berilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik borasida yana uzoq gapirish mumkin.

O'tgan haftada Prezidentimiz raisligida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda yana asosiy e'tibor ma'naviyat ahlini qo'llab-quvvatlashga qaratildi. Mazkur yig'inda ishtirok etarkanmiz, davlatimiz rahbarining ziyolilarga bo'lgan ishonchi nihoyatda yuksak ekanini his etdik.

Biz Vatanni or-nomus, iymon deb bilamiz. Ota makon, ona yurt, deya e'zozlaymiz. Ota-ona, farzandu yorimizni qancha ardoqlasak, yurti ham shunday avaylash, uning ozod va farovon yashashi uchun hamisha kurashish kerak, deb hisoblaymiz. Zero, orsiz odam uchun muqaddas narsaning o'zi bo'lmaydi. U o'z tinchi uchun vatandani



adib, tarjimon, adabiyotshunoslar ishtirok etdi. Anjumanda atoqli ozarbayjon adibi Anarga Prezidentimiz farmoni bilan yuksak davlat mukofoti — "Do'stlik" ordeni topshirildi. Tadbirga tashrif buyurgan ijodkorlar yuqorida tilga olingan adabiy obidalarimiz — ko'p jildlik kitoblarimizni ko'rib hayrat-u hayajonlarini yashirmadi. Ozarbayjon xalq yozuvchisi, "Do'stlik" ordeni sohibi Anar muallim, Qozog'iston xalq shoiri Ulug'bek Eshdavat kabi ijodkorlardan "Turkiy adabiyot durdonalari" singari ko'p jildlik majmualar nashri masalasida O'zbekistondan o'rnak olishimiz kerak, degan so'zlarni eshitib juda xursand bo'lganmiz.

Yozuvchilar uyushmasiga mehmon bo'lgan ijodkorlar safar taassurotlarini o'z davlatlari matbuotida ham e'lon qilgani yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi. Rostini aytisam, xayrli ishlar haqida bir qur yodga olganlarimiz xamir uchidan patir, xolos.

ham, ota-onasidan ham kechib yuboraveradi. Adabiyot esa haqiqiy vatan va millat fidoyilarini tarbiyalaydi.

Dunyo qalqib turibdi. Tahlikali, o'ta ziddiyatli jarayonlarning ta'siri mamlakatimizda ham sezilayotgani sir emas. Chetdan turib har xil olchoqlar ozod bir mamlakatning, xalqning tinch va osuda hayotiga tahdid soladigan g'oyalarni targ'ib qilmoqda. Ana shunday paytda davlat, shubhasiz, ziyolilarga suyanadi. Prezidentimizning "Tarixdan ma'lum: Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari — uyg'og' qalbi ziyolilar, shoir va adiblar, san'at namoyandalari, ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar... Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi G'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk

kadrlar suv bilan havodek zarur", degan ta'kidini chuqur his etish payti allaqachon yetib kelgan.

Ma'rifatparvar bobolar g'oyasini o'rganish va rivojlantirish bo'yicha Prezident qarori qabul qilinishining belgilanishi, Buxoroda Jadidlar merosi davlat muzeyi ochilishi, "Jadid" nomli yangi gazeta tashkil etilishi bilan bog'liq tashabbuslar o'z-o'zidan paydo bo'lib qolgani yo'q axir. Bugun vatanga, millatga, xalqimizga fidoyi farzandlar kerak. Shubha yo'q, belgilangan bu ishlar kelajakda o'z mevalarini beradi.

Iqtidorli yoshlarning chet elda ta'lim olishini qo'llab-quvvatlayapmiz. Shu bilan birga, ularning ma'naviyatini, milliyligi va o'zligini saqlab qolishiga ham e'tibor qarataishimiz kerak bo'ladi.

Daf'atan, ancha yil oldin ustozlarimizning biridan eshitganim yodimga tushdi. Bir necha yil ilgari ustoz yoshlarni xorijga o'qishga yuborish imtihonlaridan birida ishtirok etgan ekan. Shunda davlat ramzi bo'lmish gerbdagi humo qushini ko'rsatib, uning nimaligini, ma'nosini tushuntirib berishini so'rasa, yoshlardan biri "naverono pelux", deb javob qaytargan ekan.

Ehtimol, u xorijiy tillarni juda yaxshi bilgan, tanlagan sohasiga qiziqar, biroq kelajakda shu mutaxassisning Vatani uchun, uni oq yuvib, oq taragan xalq uchun nima qilishiga ishonasizmi?! Shunday paytlarda ma'naviyat va madaniyat sohasi — adabiyot, teatr, kino, tasviriy va musiqa san'atining targ'ibi, uning o'qib-o'rganilishi qanchalar muhim ekanini anglaysan kishi.

Har qanday adabiyotning o'zagi til hisoblanadi. Til bor, millat bor. Til bor, adabiyot bor. Yig'ilishda o'zbek tilining maqomi va nufuzini oshirish masalasi haqida so'z berganida barcha ziyolilar olqishladi. Axir shu paytda qadar O'zbekistonda o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilarga xorijiy tillarda dars o'tadigan muallimlarga beriladigan imtiyozlar bo'lmagan. Endilikda milliy sertifikatga ega bo'lgan o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchilari kelgusi o'quv yilidan boshlab 50 foiz ustama haq oladigan bo'ldi.

Prezidentimizning O'zbekistonni kitobxon mamlakatga aylantirishdek ulug' niyati bor. Kitobxonlik tanlovlari, ularning g'oliblariga mukofotlar, hatto avtomashinalar berilayotgani, nashriyot va matbaa korxonalarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida besh yil muddatga soliqlardan ozod qilinishi bilan bog'liq tashabbus shu ishga astoydil kirishilganidan dalolatdir.

Bu yangilik kitoblar tannaxri arzonlashishiga, ularning adadi ko'payishiga olib keladi. Natijada kitobxonlar soni ortadi. Kitob savdosi rivojlanib, jamiyatimizda kitobxonlik madaniyati taraqqiy etadi. Ijodiy buyurt-

malar, muallif va tarjimonlarga qalam haqi ham shunga yarasha bo'ladi. Shu ma'noda, Xalqaro bolalar adabiyoti ko'rgazmasini tashkil etish taklifi ham adiblarimiz, ham noshirlarimiz samarali faoliyat yuritishiga sabab bo'ladi. Kitobxon millatning esa ma'naviyati yuksakdir.

Ya'qinda Janubiy Koreya respublikasida xizmat safarida bo'lganimizda Seuldagi bir kitob do'koniga kirdik. Do'kon emas, shaharcha, kitoblar shaharchasi desa ham bo'ladi. Gapning rosti, juda havasim keldi. Do'kon xizmatchilaridan so'rab bildik, do'konida 350 ming nomdagi kitoblar savdogaga qo'yilgan ekan. Xaridga kelganlar xuddi konsert saroyi kassalarida turgandek navbatda turibdi. Berilayotgan keng imkoniyatlarni bizda ham shunday kitob do'konlari paydo bo'lishiga zamin bo'lsa ajabmas.

Prezidentimiz tashabbusi bilan "Jahon bolalar adabiyoti durdonalari" 100 jildligi nashri amalga oshiriladi. Demak, yangi-yangi asarlar tarjimasi bilan adabiyotimiz xazinasi boyiydi. Bolalar va o'smirlarimiz jahon mumtoz adabiyoti namunalaridan bahramand bo'ladi.

Davlatimiz rahbari tarjima san'atining ahamiyatiga to'xtalib, bunday mehnatni munosib rag'batlantirish uchun Ogahiy nomidagi xalqaro mukofotni ta'asis etish tashabbusini ilgari surdi. Xudo xohlasa, bu tashabbus samarasi o'laroq dunyoning ko'plab adabiyot namoyandalari uchun o'zbek tiliga o'girilib, kitobxonlarga tuhfa etiladi.

Teatr san'atini rivojlantirish bo'yicha dastur ishlab chiqish va Mannon Uyg'ur nomidagi mukofot ta'asis etish, maqom, katta ashula, baxshichilik, atlas va adras, kulolchilik va zargarlik kabi an'analarni davom ettiradigan maktablar yaratish, xalqaro maydonga o'zbek madaniy diplomatiyasini kengaytirish, muzeylar faoliyatini takomillashtirish, kino, tasviriy va amaliy san'at sohasini, internet adabiyotini rivojlantirish ham muhimligi ta'kidlanib, shu maqsadda adabiyot, kino, tarix, san'at, folklor namunalarini qamrab olgan "O'zbek madaniyati" portali yaratilish singari qator tashabbuslar ilgari surildi. Bular ziyolilarning oldida katta vazifalar borligini ifodalaydi.

Bugun adabiyot, san'at, ilm-fan, madaniyat ahli birlashib, bir-birini qo'llab-quvvatlab ijod qilishi kerak. Zotan, barcha taraqqiyotning poydevori ma'naviyatdir. Ma'naviyat xalq esa ma'rifatli bo'ladi. Ma'rifatli xalq degani esa Haqni taniydigan, halol va haromning farqiga boradigan, Prezidentimiz iborasi bilan aytganda, "halollik vaknasini" bilan emlangan bo'ladi. Bunday kishilar Vatanni beg'araz, beta'ma, muhabbat va sadoqat bilan sevadi, uning taraqqiyoti va farovonligi uchun bor kuch-g'ayratini ayamaydi.

MUNOSABAT

## FIKR VA QALB TARBIYASI!

**Shahlo AHROROVA,**  
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti katta ilmiy xodimi, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori

Bugun dunyoda ikkita xatar bor: biri — siyosiy, ikkinchisi — ma'naviy-mafkuraviy! Dunyoda xavfsizlikning ikki turi o'ta dolzarb: birinchisi — sarhadlar daxlsizligi, ikkinchisi — ma'naviy-mafkuraviy xavfsizlik. Demak, nafaqat yurt chegaralarini, balki qalb va ong sarhadlarini ham qo'riqlash, asrash lozim.

Davlatimiz rahbari yurtimizdagi turli kengashlarimiz ikkitasiga rahbarlik qiladi: biri Xavfsizlik kengashi bo'lsa, ikkinchisi Ma'naviyat va ma'rifat kengashidir. Mana shuning o'zi ma'naviyat masalasi nafaqat jamiyat, balki davlat ahamiyatiga molik ekanidan dalolat berib turibdi.

Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida ko'tarilgan masalalar nihoyatda dolzarb, millat, yurt taqdiriga molik. Unda belgilangan vazifalar esa yulq taqdiriga befarq bo'lmagan har bir inson oldiga vazifa qo'yadi. Bu vazifalar faqat madaniyat, ma'naviyat, ma'rifat sohasida faoliyat yuritayotganlar emas, balki jamiyatning qaysi jabhasida, qaysi lavozim yoki vazifada ishlamasin, o'zini mafkura maydonidan ayro ko'ra olmaydigan har bir shaxsga oiddir.

Prezidentimiz jadidlar misolida bugungi kunday shunday yangilanishlar

uchun kurashuvchi, fidoyi insonlar yanada ko'proq kerak bo'layotganini alohida ta'kidladim. Bu bejiz emas. Zero, dunyo inson qalbi va ongi uchun kurashayotgan bir paytda jadidlar ko'targan g'oyalari yanada dolzarblashgani namoyon bo'lmoqda. Madaniyat, san'at, milliy qadriyatlar, xalq ijodi kabi masalalar shunchaki ijtimoiy ahamiyat kasb etibgina qolmay, millatni birlashtiruvchi, milliy g'ururni oziqlantiruvchi vositaga aylanishi kerakligi aytiladi. Bu yig'ilishda ko'tarilgan masalalar ma'naviyat va ma'rifatga taalluqli deyilsa-da, aslida, millat taqdiri, yurt tinchligi, jamiyat ravnaqiga oid juda ko'p taktik va strategik vazifalarni qamrab oldi. Bu masalalar ortida nafaqat amaliy faoliyat dasturlamal, balki jamiyatni ma'naviy yuksaltirish, ijtimoiy-ma'naviy muhitni barqarorlashtirishga oid yuksal ilm ham bor.



O'yab ko'ring: nega turli kuchlar san'at, madaniyat, adabiyot kabilar vositasida ijtimoiy axloq sarhadlariga hujum qilmoqda? Nega qandaydir reklama vositasi yoki boshqa targ'ibot usullari orqali milliy qadriyatlar ilidilarga qurt bo'lib kirib borishga intilishmoqda? Nega bugun nishon bo'lib insonning ko'ksi emas, balki uning ongi, milliy o'zligi, milliy ilidizi tanlandi? Nega bugun jamiyat tarbiyasi masalasi "ommiy madaniyat" talqinida "eskilik sarqiti"ga aylantirishga unilmoqda? Mana shu yovuz maqsadlar amalga oshgudek bo'lsa, millat, xalq, kelajagimiz bo'lmish

yoshlar qay holatga kelib qoladi? Ular o'z ilidizini o'zi kemiradigan manqurtga aylanib, vatanparvarlik tuyg'ularini o'z hayotidan chirpirak qilib chiqarib tashlamaydimi? Bundaylar yovdan yurtini asraydimi yoki ularga eshik ochib, tuznon bilan kutib oladimi?

Shu jihatdan ma'naviyat masalasi — yurt va millat xavfsizligi ma'nosida juda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz milliy san'at turlarini yanada rivojlantirish, hatto o'ynib bir kunini teatr kuni etib belgilash kabi taklifi bilan millat qalbin tarbiyalash, uni sayqallashtirish orqali siyratni go'zallashtirish g'oyasini qo'ydi. Yaponiya ta'limida "Axloq sari yo'l" dasturi asosida boshlang'ich sinflarda 6-11 davomida tarbiya asosida ta'lim berilar ekan. Bu — ma'naviy tarbiyaning o'zi. Ehtimol, 2011-yilgi sunami oqibatlarini bartaraf etishda bir tanu bir jon bo'lib kurashar ekan, yapon xalqi butun dunyoga ma'naviy birligini namoyon etganining poydevori shundadir. Janubiy Koreyada esa boshlang'ich ta'limda musiqa, tasviriy san'at kabi fanlarga, qalb tarbiyasiga alohida e'tibor qaratiladi. Qolaversa, san'at, adabiyot insonga fikr tarbiyasini ham beradi. Rus olimasi Darya Mosolova va koreys madaniyatini o'rganar ekan, "Koreys xalqida hech qachon "arab bahori" amalga oshmaydi, chunki bu



yerdan olomon emas, xalq yashaydi", degan edi. Ehtimol, mana shu ta'rifning poydevorini ham o'sha, boshlang'ich sinfdagi qalb tarbiyasida ko'rish kerakdir? Mana shu ma'noda, yig'ilishda ustozlarni qo'llab-quvvatlash, nufuzini oshirish masalasi ko'tarilgani, qolaversa, qalb tarbiyasidagi yuksak vazifa dolzarblashtirilgani juda muhimdir.

O'zbek tili — muhim milliy qadriyat! O'z tilidagi sadoqat ko'rsata olmaygan o'zbek bolalar boshqa hech qanday yurtparvarlikni kutib bo'lmaydi. Har kuni xohlasa, qalb tarbiyasiga va birorta shou-ko'rsatuvga nazar soling, yomg'irdan keyingi o'z qiziqiridagi ko'payib ketgan seriallaru novellalarni, interv'yularni, konsertlarni, hatto ayrim siyosatdonlarimizning ham ma'ruzalarini tinglab ko'ring: har o'nta so'zning biri ruscha.

Badiiy tilda gapirishni-ku, aytmasam ham bo'ladi. Bugun endi tilga kirayotgan bolalarimiz ayrim, masalan, "malades", "uje", "yest" kabi xorijiy so'zlarni o'z ona tili qalbidan o'zlashtiryapti. Mabodo shu so'zlarning sof o'zbekchasini aytib qolsangiz, u sizni xorijiy tilda gapiryapti, deb o'ylaydi. Bu masalani allaqachon ongimizga singdirib bo'ldik. Til masalasi ko'tarilishi ham aynan ma'naviyatning asosiy o'choqlaridan biriga cho'g' so'lish bilan barobar bo'ladi, deb o'ylayman.

Bir so'z bilan aytganda, ushbu yig'ilishda tilga olingan har bir masala do'ppini boshdan olib, obdan o'ylantiradigan, undan so'ng ko'rkona ishga tushib ketavermay, avval uning nazariy asoslarini ishlab chiqadigan va tizimli tarzda amalga qo'yadigan vazifalar ekanini unutmasligimiz lozim.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

**Salim DONIYOROV**

MUASSIS:  
**O'zbekiston Respublikasi**  
**Vazirlar Mahkamasi**

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

Bosmaxona telefon: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va omniy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Nashri indeks — 236. Buyurtma G-1246.

43301 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi A2.** Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Feruza Jo'rayeva  
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

Topshirildi — 00:00

Hakim Yo'ldoshev olgan surat.